

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Amirova Gulnoza Rashitovna

**BOSHLANG'ICH SINFLARNI
O'QITISHDA ALISHER NAVOIY
MEROSIDAN FOYDALANISH**

Monografiya



“Ta’lim innovatsiyalari” nashriyoti

Toshkent-2026

UO‘K: 37.013:821.512.133-1

KBK: 74.200.51 R 83.3(5O‘zb)

A 62

Amirova Gulnoza Rashitovna. “Boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish”.

Monografiya.-T. “Ta‘lim innovatsiyalari” nashriyoti, 2026. - 86 bet.

Ushbu monografiyada Barkamol shaxsni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi va o‘rni haqida so‘z borar ekan, bu meroslar orasida Alisher Navoiy merosining tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkirning o‘lmas badiiy-pedagogik g‘oyalari insonning, demakki bolalarning ham ma‘naviy-ruhiy, aqliy, axloqiy-estetik va boshqa jihatlardan jadal rivojlanishi jarayonini mukammalroq anglashga, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat, ma‘rifat sohalaridagi shu kunning amaliy vazifalari, muammolarini to‘g‘ri hal etish va bajarishga ko‘maklashadi.

Ma‘sul muharrir:

Imomov Musurmon Pirnazarovich

Taqrizchilar:

**K.B.Qodirov - Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
“pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri ,psixologiya fanlari
doktori (DSC),professor.**

**H.K.Homidov -Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi” kafedrasi mudiri, dotsent.**

***Mazkur monografiya Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Kengashining 2026-yil, 29. 01 dagi 06 -sonli bayonnomasi
bilan nashrga tavsiya etilgan.***

ISBN: 978-9910-5169-2-4

© Amirova Gulnoza Rashitovna, 2026

© “Ta‘lim innovatsiyalari” nashriyoti, 2026

KIRISH

Jahonda ilm-fan taraqqiyotini jamiyat taraqqiyotining eng ustuvor omili deb bilgan mamlakatlarda yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bolaning erta bolalik davridanoq ilm-fan sohalarini chuqur va puxta o'zlashtirishlariga xizmat qilishi nuqtayi nazardan bugungi kunda dunyo tajribasida boshlang'ich ta'lim sohasidagi xalqaro tadqiqotlarda bolalarni yoshidanoq tarbiyalash, ilmga qiziqtirish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va rivojlangan Yevropa mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim tizimidagi muammolar yechimiga ilm-fan va jamiyat taraqqiyotidagi muhim qadam sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlardagi boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarni barkamol shaxs etib tarbiyalashga doir olib borilayotgan tadqiqotlarda psixologiya hamda pedagogikaning eng dolzarb muammosi sifatida o'rganilmoqda. Dunyo xalqlari inson aql-zakovati bilan yaratilgan bebaho boylik yozma yodgorliklar, buyuk allomalar asarlarini pedagogik jihatdan o'rganishga e'tibor qaratib, barkamollik timsoli, shaxsning shakllanishi vositasi sifatida tadqiq etilmoqda, yosh avlodni tarbiyalash yo'l-yo'riqlarini qayta ishlab chiqmoqda.

Mamlakatimizda yangi davr, yangi asrda barkamol avlodni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib quygan, mustaqillikka erishgach, inson shaxsi oliy qadriyat ekanligi e'tirof etildi. Shu bois barcha jabhalarda yurtimizda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bundan maqsad mamlakatimiz fuqarolari uchun farovon turmush tarzini yaratish, yurtimiz kelajagini ta'minlay oladigan ma'naviyati yuksak, sog'lom fikrli, vatan oldida o'z burchlarini anglagan sog'lom, e'tiqodli mustahkam avlodni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Prezident SH. M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz-g'ururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha –bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak, negaki, g'ururi baland xalqning qadr qimmatini ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin."¹

Barkamol, jamiyat ravnaqi uchun kurashuvchi insonni tarbiyalash har bir xalqning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ayniqsa, o'zbek xalqining faxri va g'ururi hisoblanmish Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur kabi allomalar merosi bugungi kun yoshlarini barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu allomalar orasida Navoiy ijodi va merosi ulkan manba hisoblanadi. Zero, bu borada birinchi prezidentimiz I.Karimov "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir"² deb ta'rif berishlarining o'ziyoq Navoiy ijodiyoti bebaho xazina ekanligini anglatadi.

Shu bois tadqiqotimiz mavzusini **"Boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish"** tarzida tanladik.

Tadqiqotning maqsadi: Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning merosidagi ta'lim tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish va bu qarashlarining ta'lim-tarbiyada tutgan o'rini belgilash hamda hozirgi ta'lim-tarbiya islohoti sharoitida barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

¹ SH.M.Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir". "Tasvir" nashriyoti. Toshkent-2021y 9-13 betlar.

² Karimov I.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2011, 90-bet

Tadqiqot vazifalari:

1. Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari asosida o'quvchilarni o'qitish asoslarini aniqlash;
2. Alisher Navoiy pedagogik fikrlarining o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni, ahamiyati, mazmunini tahlil etish;
3. Alisher Navoiyning barkamol shaxs tarbiyasiga oid g'oyalari asosida o'quvchilarni tarbiyalash mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etish;
4. Alisher Navoiyning pedagogik g'oyalari asosida o'quvchilarni tarbiyalashga doir kuzatish ishlarini olib borish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqot obyekti sifatida Alisher Navoiyning asarlaridagi pedagogik g'oyalar asosida o'quvchilarni o'qitish tizimini takomillashtirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Alisher Navoiyning pedagogik g'oyalari asosida o'quvchilarni o'qitishning mazmuni, shakli, metod va vositalarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy poedagogik xulosalarga kelishda nazariy, amaliy, kuzatish, taqqoslash, pedagogik tajriba o'tkazish, savol-javob, suhbat, umumlashtirish kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari asosida o'quvchilarni o'qitish nazariy jihatdan tadqiq qilindi.
2. Alisher Navoiy pedagogik fikrlarining o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni, ahamiyati, mazmunini tahlil etildi.
3. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlaridagi barkamol shaxs tarbiyasining mazmuni va mohiyati aniqlandi.
4. Alisher Navoiyning pedagogik g'oyalari asosida o'quvchilarni tarbiyalashga doir kuzatish ishlarini olib borish va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy faoliyati va adabiy merosini o'rganish o'z tarixiga ega. Bu tarix Navoiy

zamondoshlari asarlaridan, ya'ni XV asrdan boshlab, xozirgacha davom etib kelmoqda. Alisher Navoiy ijodi g'arb olimlaridan M.Belin, Lus'en Buvvat (fransuz), Edvard Broun (ingliz), E.Bertels (rus), A.Hikmat (eron), Arax Sirri Levend (turk) va boshqalar tomonidan tahlil etilgan. Alisher Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini I.Husanxo'yaev, I.O.Sultonov, N.M.Mallayev, Sh.M.Shomuhamedov, A.Rustamov, H.Hamroyevalar tomonidan pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, 7 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

I BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Barkamol shaxs tarbiyasida Alisher Navoiy merosidan foydalanishning o‘rni va ahamiyati

O‘zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Chunki ma‘naviy kamol topgan insonlargina buyuk davlatni barpo etishlari mumkin. O‘zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, uni rivojlantirishda ma‘naviy sog‘lom barkamol shaxsni voyaga yetkazish va ularda vatanparvarlik his-tuyg‘usini shakllantirish zarur. Barkamollik sari intilish, barkamol avlodni tarbiyalash muammosi Sharq pedagogikasining asosini tashkil etadi. Ota-bobolarimiz va momolarimiz tomonidan qoldirilgan pandnomalar, mashhur allomalarning asarlarini tahlil qilganimizda bu masalaga qayta-qayta to‘xtalganini ko‘rishimiz mumkin. Barkamol shaxs tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosi ekan, avvalo barkamollik tushunchasining mazmuni va mohiyatini anglab olmoq darkor.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹da “barkamol” tushunchasining lug‘aviy ma‘nosiga “Jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishgan, voyaga yetgan”, “yetuklikka erishgan, kamol topgan, bekamuko‘st, mukammal”, barkamollik tushunchasiga esa “etuklik, mukammal holati; kamolot cho‘qqisi”, “to‘kis”, “mukammal” degan ma‘nolarni anglatishi ta’kidlanadi.

Bizning fikrimizcha, barkamol shaxs– bu aqlan va ruhan yetuk, axloqan pok, jismonan sog‘lom, o‘zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxsdir.

Demak, insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta’sir etadi.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.-168-169 bet.

Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, o'quvchilar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqotchilarning fikrlariga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:

- o'quvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanish;
- o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish;
- o'quvchilarning har biriga individual yoshdashgan holda ularning kundalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish;
- yosh avlodning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va boyitish;
- o'quvchilarning estetik tasavvurlarini shakllantirish;
- o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish;
- bolani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga undash; Barkamol shaxsni tarbiyalashda avvalo axloqiy tarbiyaning o'rni va roli kattadir, buning uchun avvalo muomala madaniyati, hatti-harakatning jamiyat talabiga mos holda rivojlantirish, o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg'ularni shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Shuningdek, barkamol shaxs ma'naviyatli, bilimli, ma'lum kasb-hunar egasi, Vatanparvar, o'z navbatida sodiq fuqarodir. U o'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, o'z yurtidan g'ururlana oladigan, o'z Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday

zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi. Bugungi kunda mustaqillik yillarida o'quvchilar uchun yildan yilga qulay ta'lim sharoitlari yaratilmoqda. Bunga yurtimizda qad ko'tarayotgan maktablar, akademik litsey va oliy o'quv yurtlari hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga o'tmish madaniy merosimizni o'rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o'tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Jumladan, o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyotimiz uchun ham qimmatli qadriyat hisoblanadi. Ayniqsa, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning millat, yurt taraqqiyotiga qo'shgan hissasi katta ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz.

Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimizning qadriga yeta oladigan, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni shakllantirish pedagogik zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardandir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Vatan sha'nini har narsadan ustun qo'ya bilgan, tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana oladigan shaxsgina O'zbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Xalqimiz ajdodlardan—avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimizda mavjud bo'lgan hayot tajribalari natijasida yaratilgan o'git va pandnomalarida, chuqur ilmiy bilimlarida, vatanni asrash va ulug'lash kabi insonparvarlik g'oyalarida vatanga muhabbatni tarbiyalash haqidagi fikr va mulohazalari mavjudki, ular nafaqat bugun balki, kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Ayniqsa, o'zbek xalqining faxri va g'ururi hisoblanmish Alisher Navoiy merosi bugungi kun yoshlari qalbida o'qishga nisbatan mas'uliyat, vatanga muhabbat tarbiyasini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Alisher Navoiy

o‘zining badiiy asarlarida barkamol shaxs obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi. Zero, Alisher Navoiy Sharq mutafakkirlarining buyuk namoyondasi bo‘lib, u inson ichki va tashqi dunyosi uyg‘unligining asosi bo‘lgan tasavvuf, futuvvat ilmlarini yaxshi egallab, ularni o‘z ijodi orqali xalqqa yetkazgan, o‘zi ham unga amal qilib, ibratli ishlar qilgan ulug‘ insondir.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, xattotlik, tasviriy san’at, ma’naviyat va boshqalarni rivojlantirish bilan birgata’lim-tarbiyanitakomillashtirishga ham katta xizmatlar qilgan. U o‘zining “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” kabi yirik ta’limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun Nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashga oid o‘z qarashlarini bayon etadi.

Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida barkamol shaxs obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa barkamol shaxsni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta’lim-tarbiya aqidalari, o‘zidan ilgari o‘tgan mutafakkirlarning qarashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa inson kamolotida ilm-fanning o‘rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi.

Navoiy tasavvuridagi barkamol shaxsga xos bo‘lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiyning fikricha, aqlli qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi.

Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayotni nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Bu fikrini “Nazmul javohir” asarida:

Kim olim esa nuqtaga barhaq de oni,

Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo‘q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmaq doni.¹

Ya’ni ilmli, oqil o‘z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni yengib o‘tadi, kim ilmni o‘ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo‘lmaydi va limning vazifasi inson baxt-saodatiga eltadi, demoqchi bo‘ladi. Ya’ni bu makolat; “Ilm osmonning yulduzlardek baland martabalig‘i haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun arab alifbosidagi “ayn”i Quyosh “lom”i oy, “mim”i Kunduz harflarini ko‘rsatadi: bilimsizlik shomining qorong‘I ko‘rinishi haqidakim, g‘aflat chog‘ini pastlik kechasidan zohir qilib; bu kechada olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, johilning esa butun borlig‘i boylik, mol bo‘lsa ham tuproqlik xorligi” haqida fikrini bayon etadi.

Demak Alisher Navoiy ilmi inson kamolati uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U ilmni, insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Shunga ko‘ra o‘z asarlarida kishilarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki, ilm egallashdan maqsad ham xalqining o‘z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta’riflaydi. Masalan, Ulug‘bekni shunday insonlardan, deb ta’riflab, uning nomi ilmu-hikmatda tarix abadiy qoldi, -deydi. Bu bilan Navoiy komillikka intilgan insonlar nafaqat ilm egallaydi, balki uni xalq hayoti farovonligi yo‘lida ishlatadi demoqchi bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z dostonlarida Farxod, Qays, Iskandar va boshqa ijobiy obrazlarning tarbiyalanish, ta’lim olishda bosib o‘tgan yo‘llarini, kamolotga erishish bosqichlarini batafsil tasvirlaydi. U bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va etuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi.

Yosh bola yaxshi nima-yu, yomon nimaligini farqiga bora olmaydi, chunki uning tushunish, fikrlash, muhokama qilish qobiliyati o‘smagan

¹ Alisher Navoiy Nazm ul-javohir, Asarlar o‘n besh tomlik. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti, 15-tom, 1968,45-bet

bo‘ladi. Shu sababli, u o‘z xususiyatiga ko‘ra, bironbir salbiy ta’sir natijasida yaramas, noto‘g‘ri yo‘lga tushib ketishi mumkin. Chunki, Navoiyning ta’biricha:

Tufuliyat ayyomi yo‘qdur shuur,
Erur tab’ royu xiraddin nufur.
Ul ayyom erur lavg‘a muqtazi,
Xatog‘a dog‘i savhg‘a muqtazi.
Nedinkim xiradg‘a chu yo‘q dastras
Erur nafs da’b havoyu havas.¹

Bolaga yoshlikdan tarbiya berilmasa yigitlik davrida ham yomon yo‘lga tushib ketishi mumkin deya ko‘rsatadi. Navoiyning fikricha bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor, shuningdek har biro ta-ona o‘z farzandiga yoshligidan ta’lim berishi, maktabda o‘qitishi lozimligini ta’kidlaydi:

Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg‘ali ta’lim anga ilmu adab.²

Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat emas, balki eng yaxshi fazilatlar unga ziynatdir. Eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir:

Oltin, kumush etma davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni davlat tunidin,
Gar yo‘qdir adab ne sud oltun unidin,
El adabi xushroq erur oltunidin.³

Shuningdek, shoirning barkamol shaxs haqidagi fikrlarida vatanparvarlik, vatanni ulug‘lash doim etakchi o‘rinni egallydi va albatta bu fikrlar yillar o‘tgan sari o‘z qadr-qiymatini yo‘qotmagandir.

Shoir Alisher Navoiy vatan tushunchasini ona yurt, o‘rin, tug‘ilib o‘sgan joy, maskan, manzil ma’nolarida qo‘llagan. U o‘zining “Hayrat ul-abror” dostonida vatanga bo‘lgan e’tiqodini, mehr-muhabbatini namoyon etgan. Shoir tug‘ilib o‘sgan vatani Xurosonni vatanlar ichra tengsiz vatandir, deya ta’riflaydi:

Ziynat aro ravzai rizvondir ul,

¹ Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent, 2016, 733 bet

² Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent, 2016, 73 bet

³ Alisher Navoiy. Nazmul-javohir, Asarlar o‘n besh tomlik. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti, 15-tom, 1968, 138-b.

Ravzani qo'y, mulki Xurosondir ul¹ .

Shuningdek, shoir ona shahrini jannatga qiyoslaydi. Xuroson jahonning ko'ksi, Hirot esa uning yuragidir deb ta'kidlaydi. Hirot shahrining maftunkorligi, go'zal tabiatining tasviri shoir qalamida o'z jilvasini topadi. Shoir vatanining tasvirini keltirar ekan, uning go'zalligi oldida hayrati yanada oshadi:

Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri.

Bir-biridan turfa aning har biri² .

Navoiy butun hayoti davomida xalq g'ami, dardi, vatanni obodonlashtirish qayg'usi bilan yashadi, ijod qildi. Shu sabab uning barcha asarlarida vatanga muhabbat, vatanparvarlikning yuksak namunasini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiyning insonga muhabbati vatanga muhabbati bilan mustahkam bog'langan. Insonni sevgan Navoiy el-yurtning obod, farovon, mustaqil bo'lishini va unda insonlarning do'st – yor, ahil, hur bo'lib yashashini istaydi. U vatanga samimiy muhabbatni quyidagi hikoyatida ochiq ifodalaydi:

Bir tez uchar kaptar bor edi. U qanot qoqib ucha boshlaganda ko'tarilib, uzoq-uzoqlarga uchar edi. Kunlardan bir kun u bir shohning tuzog'iga ilinib qoladi. Tuzoq qili qanotiga ko'p shikast yetkazgan edi. Ko'p yillar qafasda azob chekib, nola qilib yotadi. Bir kun u bechora zindondan u qutulib qochib, shodlik va xursandchilik bilan sayrab, osmonga parvoz qilib, har tomonga sinchiklab qarab, o'z makoni tomon yo' oladi.

Bu muborak qush g'ayrat bilan uchib, necha kunlik yo'ni bir damda bosib o'tdi. Lekin, zamon zulmi ko'p o'zgarishlar yasab, buning turadigan uyasini xarob qilgan edi. O'z joyini topolmasa ham, lekin uchishdan to'xtamadi. Nihoyat u o'z uyasini topdi:

“Base davr urub ehtiyot aylabon,

Buzug' uzra qo'ndi nishot aylabon.

Ki ma'nu serur garchi vayronadur,

¹ Navoiy A. Hayrat ul-abror.T., “G'.G'ulom”, 2006, 217- b.

² Navoiy A. Hayrat ul-abror.-T., “G'.G'ulom”, 2006, 219- b.

Netay shoh qasrinki, begonadur.
Erur qushg'a xushroq chu boqsang ayon,
Murassa' Qafasdin tikon oshyon."¹

Navoiy tomonidan yaratilgan ushbu hikoyani o'qigan kitobxon qalbida vatanni sevishga uni asrashga nisbatan muhabbat hissi uyg'onadi.

Alisher Navoiy xalqini, o'z vatanini, uning go'zal tabiatini, xalqning tilini, olimlarni, qahramonlarni, umuman "munosib odamlar"ni chin qalbdan sevar edi. Undagi vatanparvarlik hissi boshqalar vatanini hurmat etadi. Navoiyning vatanparvarlik hissi boshqalar vatanini hurmat etadi. Navoiyning vatanparvarlik hissi uning asarlarida va yaratgan obrazlarida juda yoqqol ko'rinadi.

Xalqni vatanga, el-yurtga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadi, Navoiy o'zining asarlaridagi ko'pchilik ijobiy obrazlarni vatanparvar qilib yaratdi. Farhod bilan Shirin Eron shohi Xisravni Shirinning vataniga –Armanistonga kiritmaslik uchun qattiq kurash olib bordi. Iskandar o'z otasining "Mulkinga begonani qo'ymag'il" degan vasiyatini umrining oxirigacha bajarish uchun kurashi.

Vatanni himoya qilish va uni dushmandan saqlash uchun:

"Ayolu vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor"²

Yani vatan uchun kishi joni boricha, imkoniyat boricha urishadi, deydi Navoiy.

Vatanparvarlik faqat el-yurtni himoya qilishdan iborat bo'lib qolmay, balki el-yurtni obod, farovon va baxtli qilish uchun kurashmoqni ham talab etadi. Buni hammadan burun odamlar hal etadi. Shuning uchun insonni sevish, uning qadr-qimmatini ko'tarish, unda eng yaxshi fazilatlarni vujudga keltirish kerak. Alisher Navoiyning fikricha, inson uzoq yillik mehnat, tarbiya va parvarish natijasida voyaga etadi.

Mutafakkir shoir vatanparvarlik tushunchasini xalqparvarlikda deb biladi:

¹ Navoiy A. Hayrat ul-abror.-T., "G'.G'ulom", 2006, 229- b.

² Navoiy A. Farhod va shirin.-T.: "G'. G'ulom", 2006.-15 b.

Odamiy ersang, demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidim g‘ami.¹

Bu-Navoiyning inson haqidagi qarashlari tizimida eng muhim nuqta. Zero, shoirning o‘zi ham xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, bu narsaning o‘zingga foydasi ko‘proq, degan aqida bilan yashagan:

Nafing agar xalqqa beshakduru,
Bilki, bu naf o‘zingga ko‘prakdurur.²

Navoiyning nuqta nazariga ko‘ra, molu dunyoni yig‘ish emas, balki xayrli ishlarga, xalq farovonligi yo‘lida sarflash kerak. Uning o‘zi shunday yo‘l tutadi va boshqalarni ham shunga da‘vat qiladi. Shoirning yozishicha, pulu boylikning quliga aylangan, jonini tikib molu dunyoga intilgan kishi hech qachon aziz bo‘lmaydi:

Hargiz bo‘lmas johu diram zori aziz,
Jon naqdi berib, siym xaridori aziz.³

Xalq hayotini eng chuqur qatlamlarigacha, ikir-chikirlarigacha yaxshi bilgan Navoiy xalqni sevadi, xalq farovonligi yo‘lida tinimsiz ijod qiladi.

Alisher Navoiy o‘z davrida xalq bolasi ilm olishi uchun “Ixlosiya” madrasasi yonida maktab ochib, o‘z vaqfidan mablag‘ ajratadi. Madrasada ta’lim olayotgan har bir talabadan ilmga qattiq intizomga rioyo qilishi talab etilgan.

Alisher Navoiy o‘zi barpo etgan “Ixlosiya” madrasasiga o‘z zamonasining etuk mudarrislarini yig‘di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil olganlar. Navoiyning ilmga intiluvchilar uchun va jamiyat ilm-fani rivoji yo‘lidagi rahnomoligining o‘ziyoq allomaning o‘zi ham ilmni qadrlagan shaxs bo‘lganligining yaqqol isbotidir.

Shunday ekan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash jarayonida Havoiy hayoti va merosi namunalaridan tizimli foydalanish maqsadga muvofiq.

¹ Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlar.-T.: O‘zbekiston, 2011.-5 b.

² Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlar.-T.: O‘zbekiston, 2011.-5 b.

³ Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlar.-T.: O‘zbekiston, 2011.-5 b.

Alisher Navoiyning barkamol shaxsni shakllantirishga, tarbiyalash va o‘qitishga oid fikrlari, uning talimiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlarida komil inson aqliy, axloqiy, ilm-ma’rifatga intilgan ijodkor, qobiliyatli, bilimdon, oqil va dono kishi, sofdil, vatanparvar, saxovatli, sabr-qanoatga ega bo‘lgan, adolatli, muruvvatli, kamtar, sog‘lom va jismonan baquvvat, mard va jasur shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Alisher Navoiy bunday fazilatlarga ega bo‘ladigan barkamol insonning faqat badiiy obrazini yaratib qolmay, uni tarbiyalash uslubi va yo‘llarini ham bayon etdi va bu yo‘lda uning “Nazmul-javohir”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”dek shoh asarlari pedagogika tarixida munosib o‘ringa ega bo‘ldi.

Uning ana shunday shoh asarlaridagi g‘oyalaridan foydalanib, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash bugungi kun vazifasidir.

1.2-§. Alisher Navoiy asarlarida pedagogik va didaktik g‘oyalar tahlili

O‘rta Osiya va Sharq ilm-fan taraqqiyotining ma’naviy asoslaridan biri bo‘lgan, Navoiy asarlarining bosh g‘oyasi insonni ulug‘lash, uning kamolotini ichki va tashqi dunyosi uyg‘unligida qarashdan iboratdir.

Alisher Navoiy barcha asarlarida xalq hisobiga boyiydigan ma’rifatsiz feodal sinf vakllarining ochko‘zligi va ilmsizligini tanqid qiladi. Uning fikricha mamlakatda tinchlik, ma’rifat, insonparvarlik va adolatlilik hukm surishi zarur. Uning she’riy to‘plamlari va boshqa asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga ham alohida o‘rin berilgan. Navoiy ta’kidlashicha, yer kurrasida yashayotgan barcha insonlar millatidan qat’i nazar tengdir. U insonlar hayot mazmunini faqat mehnat tashkil etadi, deydi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, Navoiy o‘z ijodida inson va uning qadri, tafakkuri, aqli, bilimi va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U *“Bilim va donishmandlik insonning bezagidir”* – deb yozadi.

Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-

axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy Sharq mutafakkirlarining buyuk namoyondasi bo‘lib, u inson ichki va tashqi dunyosi uyg‘unligining asosi bo‘lgan tasavvuf, futuvvat ilmlarini yaxshi egallab, ularni o‘z ijodi orqali xalqqa yetkazgan, o‘zi ham unga amal qilib, ibratli ishlar qilgan ulug‘ insondir.

Axloqlilik kishining ma‘naviy-insoniy sifatlarga rioya qilishi bo‘lib, u faoliyat, munosabat va xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ma‘naviy tarbiya inson kamolotida axloqiy-estetik tarbiyani birgalikda ko‘rish, uning nazariy va amaliy uyg‘unligini insonparvarlik g‘oyasi asosida amalga oshirish komil insonni tarbiyalashning asosi sanaladi.

Har bir inson dunyoga kelar ekan, u baxtli bo‘lish huquqiga ega. Insonning to‘kis va baxtli hayot kechirishi yoki kechirmasligi o‘zining qo‘lida. U farovon hayotga to‘la imkonlar bilan dunyoga keladi: har bir kishining o‘ziga xos betakror qobiliyat va imkoniyatlari mavjud. Shu qobiliyatlarni vaqtida sezib, ularni rivojlantirish ota-onalarning, murabbiylarning, qolaversa, jamiyatning zimmasiga tushadi.

Biz o‘z ishimizda insonning oliy maqsadi, shu maqsad sari intilishlari, xatti-harakatlari va hatto ezgu niyatlarini xalqimizning boy ma‘naviy merosiga asoslanib hukmingizga havola qilmoqchimiz.

Alisher Navoiy amaliy faoliyatida va asarlarida insonni qadrlagannini ko‘ramiz. Shoir inson qadr-qimmatini juda yuksakdir”

“Insonki erur charog‘i binish,
Bal chashmu charog‘i ofarinish”.¹

Alisher Navoiy adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san‘at, me‘morchilik va boshqalarni rivojlantirish bilan birga ta‘lim-tarbiyada rivojlantirishga ham katta e‘tibor berdi. U o‘zining “*Xamsa*”, “*Mahbub ul-qulub*” kabi yirik ta‘limiy asarlarida, shuningdek, “*Munojot*”, “*Vaqfiya*”, “*Majolisun nafois*”, “*Muhokamat ul-lug‘atayn*” asarlarida hamda Abdurahmon Jomiyning “*Arba‘iyn*” nomli asari tarjimasini “*Chihil hadis*” (“Qirq hadis”) kabilarda axloqiy-estetik tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi.

¹ Alisher Navoiy, *Xamsa*, Toshkent, 2016.750-bet

“Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritir ekan, ularning o‘ta qattiqqo‘l, johil va ta‘magirlarini: “Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga rag‘batlangan. Ularni kaltaklashga o‘rgangan. O‘zi rahmsiz, miyasi po‘lat va ko‘ngli toshdir. G‘azabli qoshi chimirilgan, gunohsizlarga achchiqlanishga odatlangandir. Ularning ko‘pchiligida ko‘ngil qattiqligi va ta‘ma kasalligi oshkor va o‘zlari aql kamligiga giriftor. Ammo yosh bolalar tabiatidagi qaysarlikni qiynalib rom qiluvchi va kichkinalarning olazarak harakatini do‘q bilan tartibga soluvchidir”, -deb qoralash bilan birga, bola shaxsini hurmat qilishni alohida ta‘kidlaydi.

Shu bilan birga o‘qituvchi mehnatining og‘irligini tahlil qilib, shunday deydi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsaqandayo bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila”.¹

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga yetishida ilmu fanning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e‘tiborni qaratadi.

Navoiy orzu qilgan ***komil inson*** faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, tavoze’, adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo‘lishi lozimligini bir necha bor ta‘kidlagan edi.

Shu bois Navoiy umr bo‘yi to‘plagan tajribasi asosida **“Mahbub ul-qulub”** (**“Ko‘ngillarning sevgani”**) asarini yozdi va ana shu asarida o‘zining axloqiy qarashlarini bayon qildi: “Har ko‘cha-kuyda

¹ Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent, 2016, 78-bet

yuguribman va olam ahlidan har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe‘l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”¹.

Alisher Navoiy asarlarida insonning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishida kishilarning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lishiga ham jiddiy e‘tibor berilgan. Masalan, uning qahramonlari Farhod, Qays, Iskandar obrazlarida jismoniy tarbiya va dilovarlik ta‘limini ko‘ramiz. Zero, bunday ta‘lim-tarbiya qadim davrlardan boshlab an‘anaviy tarzda davom etib, takomillashib borgan.

Taom yeyish qoidalariga rioya etish sihat-salomatlikni saqlashning eng birinchi talabi sifatida talqin etilgan. Masalan, u *“Nazmul javohir”* asaridagi bir ruboiysida shunday deydi:

Har kimgaki ko‘p yemak fandur,
Bilgilki najosatqa tani maskandur.
Qorning bila do‘st bo‘lmasang ahmandur,
Nevchunki Er o‘g‘lig‘a qorin dushmandur².

Umuman insonning sog‘lom va baquvvat bo‘lib yetishishi haqidagi o‘g‘itlari o‘sha davr ta‘lim-tarbiyasiga oid didaktik-axloqiy asarlarida yetakchi o‘rinlarni egallagan.

Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash uslub va usullari, vositalari ham ifodalangan. Navoiy asarlarida bola tarbiyasida, bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug‘ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Tarbiya va ta‘lim ota-ona hamda o‘qituvchi tomonidan olib borilishi lozim topiladi. Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo‘lishni, lekin bunda ham meyoridan oshmaslik lozimligini uqtiradi. Bundan Navoiy o‘qituvchining talabchan bo‘lishga undagani, ammo har ikkalasida ham ma‘lum meyorini bilish zarurligini uqtirgani ma‘lumdir. Tarbiya haqida gapirar ekan *“Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga*

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 2008. 73- bet

² Alisher Navoiy. Nazmul-javohir, Asarlar o‘n besh tomlik. Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti, 15-tom, 1968, 132-b.

tarbiya xayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyatingni nobud qilma”¹, deydi.

Alisher Navoiy tarbiyada insonnig o‘z-o‘zini tarbiyalashga, xato va kamchiliklarini anglab, tuzatishiga e’tibor beradi: yanglish va xato kishilikning shartidir. Xato yanglishishni anglab, ogohlangshan baxtli kishidir. Kimki, e’tirof tomon qaytar ekan, xatosi yo‘qoladi. Kimki, dalil keltirib aljiray bersa, xatosini bir karra oshiradi. Mubolag‘asi qancha ko‘proq esa, yanglishishi shuncha ko‘rimliroq bo‘lur va o‘zini katta ko‘rsatib, tortishuvi qancha esa ortiqroq o‘zi xalq o‘rtasida shuncha rasvoroq ko‘rinur.

Xatog‘a tadoruk nedur bexilof,
Ayon qilmoq o‘z sahviga e’tirof,
Vagar qilsa sahvig‘a ijro dail,
Ki yaxshidur aylar iki ancha bil.²

Alisher Navoiy barcha asarlarida feodallar yuritayotgan kuch va hukmronlikni tanqid qiladi. Uning fikricha mamlakatda ma’rifalchilik, insonparvarlik va adolatlilik hukm surishi zarur. Uning she’riy to‘plamlari va boshqa asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga ham alohida o‘rin berilgan, ya’ni **insonparvarlikni** yuksak deb bilib, yer kurrasida yashayotgan barcha insonlar millatidan qat’i nazar tengdir. U insonlar hayot mazmunini faqat mehnat tashkil etadi, deydi.

Alisher Navoiy inson va uning tafakkuri, aqli, bilimi hamda ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U “Bilim va donishmandlik insonning bezagidir”-deb yozadi. A.Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot “chirog‘i” deb ta’riflaydi.

Axloqiy-estetik tarbiyani insonparvarlik g‘oyasi asosida yo‘naltirish uchun eng avvalo insonparvarlikni o‘zini alohida tushuncha deb emas, balki insonnig ma’naviy-ruhiy sifati deb insondan ajratmasdan tahlil qilib ko‘rishimiz kerak. Inson boshqa jonzotlardan farqli o‘laroq ulug‘ ruhiy-hissiy siymodir. Insonning moddiy biologik

¹ Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent, 2016, 71-bet

² Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent, 2016, 73-bet

hayotiy faoliyati inson aqli hissiyoti bilan shakllanadigan va rivojlanadigan ruhiy-hissiy sifatlari bilan boshqariladi.

Alisher Navoiy: “Inson bolasi tug‘ilganda uning qalbi toza oq qog‘ozdek bo‘lib, hayoti davrida voqealar uning aqliy-hissiy kechinmalaridan o‘tib, qalb daftariga yozila boradi. Qalb daftari ma’naviy-hissiy boy bo‘lishi uchun axloqiy-estetik tarbiya insonparvarlik yo‘nalishda, ya’ni ezgu niyatlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ezgu niyatli qalb go‘zal qalb bo‘lib, unday insonlarning so‘zi ham, ishi ham, fe’li ham go‘zal bo‘ladi. Qalb go‘zalligi esa ichki va tashqi go‘zallikka bo‘linadi. Shuning uchun go‘zallikni his qilish axloqiy va estetik sifatlarni uyg‘unligida amalga oshadi”, -deb ta’kidlaydi.

“Lison ut-tayr” dostonining bosh hikoyasi quyidagichadir: har xil qushlar bir gulistonda majlis qurmoqchi bo‘ladilar. Lekin har bir qush o‘ziga munosib martaba va o‘rin ololmaganligi tufayli mojaro ko‘tariladi. Shunda qushlar odil shohga ehtiyoj sezadilar. Xudxud (popishak) Simurg‘ degan qush borligin aytib, uning afsonaviy xislatlarini aytib beradi. Shunda jamoa Simurg‘ni izlab, qanot qoqishga ahd qilishadi. Xudxud Simurg‘ni izlab, qanot qoqishga yetishish g‘oyat mushkul, bu yo‘lda azobu uqubatlar chekish muqarrarligini uqtirib o‘tadi. Qushlar hech ikkilanmay, Xudxuddan rahbar bo‘lishni iltimos qiladilar. Ammo Xudxud ko‘nmay, “Mayli men yo‘l ko‘rsatay, lekin hozir boshliq bo‘l deysiz, keyin oramizda nizo paydo bo‘ladi”, deydi. Bu gapni mazmunan Xoja Baxouddin aytganlar: “Qachon bandalik xojalik bila rost kelur? Baxouddin Naqshband kabi Xudxud ham boshqalardan o‘zini ustun qo‘yib, ularga xo‘jayinlik qilishni o‘ziga ep ko‘rmaydi”.

A.Navoiy va uning ham maslaklari tasavvufning tarbiyaviy xizmatiga alohida ahamiyat berib, jamiyat axloqini faqat shu yo‘l bilan tozalash mumkin deb o‘ylaganlar. Tasavvuf-Navoiy uchun sinov toshi, barcha ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik masalalar kelib tasavvufga taqaladi va u orqali izohlanadi, o‘z bahosini oladi.

“Lison ut-tayr” dostonidagi hikoyatlarning aksariyati din va tariqat xatti-harakatlaridan yuzaga chiqqan. Ushbu dostonni o‘rganish ayni paytda, tasavvufni ham o‘rganishdir”.

Insoniy kamolotga yetishtiruvchi sifatlar: qanoat, sabr, ilm, vijdon, vatanni sevmok, vaqtni bekor o'tkazmaslik, Olloh Taolaga ibodat qilmoq, ota-onasiga ibodat qilmoq, qarindoshlarini izzatu-hurmat qilmoq, sahovat, ochiq yuzlik va hokazo.

Kamolotdan mahrum qiladigan salbiy xislatlar: hasad, dangasalik, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarsizlik.

Navoiy "sabr" to'g'risida:

Islomda **sabr** axloqiy fazilatlardan bo'lib, musulmon kishining tayanchlaridan biridir. U musulmonlar qalbiga sukunat va xotirjamlik solib, alam berayotgan dardiga malham bo'ladi. Sabrli kishi qiyinchiliklarni sabot bilan qarshi oladi va uni Olloh tarafidan deb biladi. Oqil odam Olloh tarafidan yuborilgan bu qiyinchiliklar ortida ajoyib hikmatlar, o'ziga yaxshilikni topishga urinadi. Agar sabr bo'lmasa, yetgan balolardan inson halok bo'lishi va hayotdan ortda qolishi turgan gap. Sabr ruhiy hayot bilan moddiy hayotni ajratib turuvchi bir narsadir. Sabr barcha fazilatlarning onasidir. Chunki u inson qalbida yaxshilik malakasini oshiradi. Har bir fazilat sabrga muhtojdir. Masalan, shijoat, shaxt qiyinchiliklarga sabr qilishdan iborat, iffat esa shahvatlarga sabr qilish va hokazo.

Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zafarni daf' etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir. U o'rtoqdir – suhbatlari zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi. Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushiruvchi.

Navoiy "qanoat" to'g'risida:

Qanoat buloqdur – suvi olgan bilan qurimaydi; ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradi: daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi.

Kmiki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi... qanoat qo'rg'ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'likdir – u yerga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotsizlik urug'ining mevasi farovonlik...

Har kimning agar qanoatga nisbati bo'lsa,
Barcha kishilar o'rtasida izzatli va hurmatli bo'lur.
Kimniki tamau xir bilan ulfati bo'lsa,
Yaxshi-yomon oldida xor bo'lur va naxs ko'runur.

Navoiy “saxovat va himmat” to'g'risida:

Saxiylik (qo'li ochiqlik) kishilik bog'ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o'kasining to'qinli daryosi, balki u to'qin daryosining asl gavharidir. Saxiylik odamning badanidir, himmat uning joni; himmatlilardan dunyoga yuz ming kushoyish bo'ur. Isrofgarchilik (ortiqcha sarflash) saxiylik emas, sovurishni bema'ni odamlar saxiylik demas... Faxrlanish uchun bermoq o'zni ko'rsatishlik va bu bilan o'zini saxiy, demak behayolikdir.

Bundan tashqari, Navoiy insoniylikning eng oliy tuyg'ularidan biri bo'lgan ***vatanparvarlik*** haqida shunday deydi:

Kim egru tuzluk emas poyasi ham,
Bor o'zidek sudu sarmoyasi ham,
Tuzluk ermas shifosiyyu voyasi ham,
Kim, egri kishining egridur soyasi ham.¹

Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shu kishining vatani deyiladi. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyadi. Bobolarimiz: “Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l”,-deganlar. Bola asosan, oilada tarbiya oladi. Bolani qaysi yoshdan maktabga berish lozimligini Navoiy ochiqchasiga aytmasa ham, lekin uning o'zini ham, adabiy asarlaridagi qahramonlarining ham qaysi yoshdan maktabga berilganligini bilamiz. Oilada olgan tayyorgarligi bilan maktabga o'qiy boshlagan. Alisher 6 yoshida Qur'oni karimning “Taborak” bobigacha o'qiganini mashhur tarixchi Sharafiddin Yazdiyga hikoya qiladi.

Navoiyning fikricha, har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan ta'lim berishi, maktabda o'qitishi lozim:

Qilmoq erur biri muallim talab,
Qilg'ali ta'lim anga ilmu adab.²

¹ Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent. 2016.709-bet

² Alisher Navoiy. Xamsa, Toshkent. 2016.709-bet

Alisher Navoiy yosh avlodga beriladigan bilim va tarbiyani bir-biriga bog‘lab olib borishni, bolaga yaxshi tarbiya va odob o‘rgatishni ta’kidlaydi:

Topting chu ayol yaxshilik etkurgil,
O‘rgat adau yaxshi qiliq o‘rgatgil,
Har necha adab bo‘lsa qattig‘ yetkurgil,
Xayliga adab qilib saboq yetkurgil.¹

Demak, ulug‘ bobomiz A.Navoiyning asarlari va undagi didaktik g‘oyalari o‘rganish asosida insonni ulug‘lanishi chuqur axloqiy-estetik asoslarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, har bir inson dunyoga baxtli bo‘lish huquqiga ega bo‘lishi uchun kellar ekan, to‘kis va baxtli hayot kechirishi yoki kechirmasligi insonning o‘z qo‘lida. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir inson, komillikka erishish va aqliy bilish uchun harakat qilishi kerak. Inson komillikka xayr-ehsonli ishlari, go‘zal insoniy fazilatlari vositasida erishadi.

Demak:

- Inson ruhiy-hissiy siymo, uning faoliyati ruhiy-hissiy sifatleri va qalb amri bilan amalga oshadi, insonning qalbi ezgu axloqiy-estetik sifatlariga ega;
- insonning qalbi ma’naviy-hissiy boy bo‘lishi uchun axloqiy-estetik tarbiya insonparvarlik yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim;
- Alisher Navoiy jamiyat axloqni tasavvufning insonparvarlik g‘oyalari asosida tozalash mumkin deb o‘ylagan “Lisonut-tayr” dostonining hikoyatlarida din va tariqat haqiqatlarini keltirgan.

Biz ana shu harakatlar asosida axloqiy-estetik tarbiyaning nazariy jihatlarini aniqladi Umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinfida o‘rganiladigan “o‘qish”, “ona tili”, “tarbiya” o‘quv fanlari mazmuniga A.Navoiyning asarlaridagi insonni qadrini ulug‘lash g‘oyalari bilan singdirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “O‘qish”, “Ona tili” va “Tarbiya” darslari orqali barkamol shaxs qolib tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimiz asosida o‘quvchilarda axloq, ma’naviyat, odob, estetik did va qarash, go‘zal odatlarni tarbiyalash.

¹ Alisher Navoiy Xazoyin ul maoniy. Toshkent, 1960. 16-bet

2. Barkamollik xislatlarining asosini tashkil qiluvchi saxovat, saxiylik va boshqa sifatlarning ma'nosini ochib berish, ularni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

3. Davlat, xalq, jamoatchilik va ota-ona oldidagi ijtimoiy burchni tushuntirish.

4. Milliy g'urur, burch, shaxs qadr-qimmati, iroda, baxt kabi tushunchalarni to'g'ri anglash.

Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik va demokratik g'oyalari asosida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning nazariy va amaliy ahvolini aniqlashda adabiyot darslari bilan birga odobnoma, tarbiyaviy soat darslarini oldik, chunki maktablarda odob-axloq haqida asosiy ta'lim-tarbiya beruvchi fanlardir.

Ammo Alisher Navoiy fan va madaniyat tarixida tasavvuf, tariqat ilmlarini yaxshi egallab, ularni o'zining boy hayotiy tajribasidan o'tkazib, uning turli janrlarda yozilgan asarlarida adabiyot, tasavvuf, falsafa ilmlarini uyg'unlashtirib, insonparvarlik g'oyasini mukammallashtirilgan yirik mutafakkirdir. Shuning uchun boshlang'ich sinf odobnoma darslarini biz Alisher Navoiyning buyuk merosi bilan yana ham to'ldirish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

1.3-§.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning mavjud holati

Mamlakatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar hayotning barcha sohalaridagi islohotlar bilan uzviy bog'liqdir. Biz ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli natijasi sifatida boshlang'ich sinflar darsliklarining yangi avlodini tahlil etishga harakat qildik. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ta'lim sohasidagi islohotlardan ko'zlangan maqsad ham darsliklar va qo'llanmalarning mazmunini o'quvchilarda, bilimga intilish, savodxonlikni oshirishga shuningdek umuminsoniy, milliy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari bilan boyitish, mutafakkirlarning barkamol inson haqidagi fikr va mulohazalari yordamida yosh avlodni vatanparvar, imon-e'tiqodli shaxs sifatida tarkib toptirishdan iboratdir. Mustaqillikdan keyingi

yillarda chop etilgan boshlang'ich sinflar darsliklarini tahlil etganimizda ham, bu darsliklarning mazmunida o'quvchilarni yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarni shakllantirishga undaydigan o'quv materiallariga alohida o'rin ajratilganligini ko'rish mumkin. Boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan darsliklar avvalo "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi" asosida tuzilgan.

Boshlang'ich sinf yangi avlod darsliklarni yaratishda ko'pgina mutaxassislar faol ishtirok etdilar. Bu borada R.Safarova, T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Q.Abdullayeva, O.Hasanboyeva, S.Fuzailov, M.Umarova, V.Ahmedov, S.Matchonov, A.Grigoryans, R.Hasanov kabilarning xizmatlarini ta'kidlab o'tmoq joiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishda "O'qish" hamda "Ona tili" darsliklari alohida ahamiyatga ega. Ushbu darsliklar yordamida o'quvchilar o'zbek halqining tarixi, mashhur allomalari, xalq og'zaki ijodi, O'zbekiston hududi, vatanimiz tabiati, unda yashovchi insonlar mehnati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari haqida bosqichma-bosqich ma'lumotga ega bo'lib boradilar.

Davlat ta'lim standarti talablarida o'quvchilarni bilimi, mustaqil fikrlaydigan, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishga qodir barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish adib merosidagi ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarni o'quvchilar ongiga boshlang'ich sinflardanoq chuqur singdirish va yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi va oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol shaxs tarbiyasi muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi. Chunki birinchi prezidentimiz I.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi bilan bog'liq holda ko'radigan yangi

avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda”.¹ Shunday ekan, Vatanimiz va xalqimiz tarixini o‘rganish, o‘quvchi shaxsida boshlang‘ich sinflardan oq mustaqil fikrlash shakllantirish ularning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Albatta, bunda adabiyot, tarix va boshqa ijtimoiy fanlardan saboq berishda tarixiy shart-sharoitlar, buyuk shaxslar va sarkardalarning vatanimiz tarixiy rivojlanishiga ta’siri bayon etilgan matnlarni vatanparvarlik nuqtai nazaridan o‘rganish qimmatli ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishda ma’ruza, muloqot, suhbat, bahs-munozara uyushtirish, kengash va anjumanlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi o‘quvchilarning xalqimizning boy madaniy merosi va o‘lmas qadriyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘lib, sog‘lom ma’naviy muhitda vatanparvar shaxs bo‘lib kamol topishiga sharoit yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish imkoniyatini ularning yoshligidanoq boshlanishi zarur.

Boshlang‘ich sinf bu sohada dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinfda asosiy e’tibor bolani savodli, bilimli qilishga qaratilganligi bilan birga ularda tarbiyasini shakllantirishda ham asosiy zamin hisoblanadi. Chunki, yoshlikdan berilgan to‘g‘ri tarbiyagina insonning ulug‘vor kelajagini va to‘g‘ri harakatini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standartlarida 1-sinf uchun “O‘qish” darsi savod o‘rgatishdan keyin amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchilarni quyidagi mavzular bilan tanishtirish nazarda tutilgan: ona tabiat va erta bahor, kishilar mehnati, bolalar o‘yini, odob-axloqqa doir matnlarni o‘qish va boshqalar. O‘quvchilarda barkamollik xislatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mavzular mavjud:

Navbatdagi vazifamiz ushbu darsliklarda Alisher Navoiy merosining berilish darajasi va ahamiyatini tahlil etishdir.

¹ Karimov I. Tinchlik va havfsizligimiz o‘z kuch qudratimizga, hamjixatligimizga va qat’iy irodamizga bog‘liq. 17-b.

1- sinf o‘qish darslarida ajdodlar merosiga bag‘ishlangan “Biz buyuuklar avlodi” bo‘limida Alisher Navoiy ijodiga 3 soat ajratilgan bo‘lib, birinchi matnning nomi “Bobokalonimiz Alisher Navoiy” deb nomlangan. Bu matn orqali o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid dastlabki ma’lumotlar berilgan.

Bu matn orqali o‘quvchilar Alisher Navoiyning yoshligidanoq ilm-hunar o‘rganishga qiziqqanligi va ilm-hunar o‘rganish yo‘lida uyalmasdan bilmagan narsalarini so‘rab o‘rganishi lozim ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ushbu darslikda Alisher Navoiyning quyidagi hikmatli so‘zlari ham berilgan:

1. Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,

Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

2. Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur

Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

3. Chin so‘zni yolg‘onga chulg‘ama,

Chin ayta oladigan tilni yolg‘onga bulg‘ama.

4. Yaxshi kishi yomonlarga ham yaxshiligini unutmaydi.

5. Yaxshilikni bilmasang yaxshilarga qo‘shil.

Bu hikmatli so‘zlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda to‘g‘rilik, halollik, mehr-oqibatlik, axloqlilik, did va farosatlik, bilim olishda mehnatdan qochmaslik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

15-darsdagi adib Oybekning qalamiga mansub “Alisherning yoshligi” nomli hikoyasi bilan o‘quvchilarni tanishtiriladi. Bu hikoya o‘quvchilar yoshiga juda mos tanlangan bo‘lib, ularda insoniylik hamda tabiatga muhabbatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

16-darsdagi “Non isi” deb nomlangan rivoyat esa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘tkir zehnni, e’tiborli bo‘lishni, shuningdek, o‘zgalar mehnatini qadrlash va axloqiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. 2-sinf “O‘qish” darsligida esa A.Oripovning “O‘zbekiston” she’ri, O‘zbekiston- mening vatanim matni, “O‘zbekistonim” Hamza Imomberdiyev, “Istiqlol” Jumaniyoz Jabborov, “Humo qushi” Po‘at Mo‘min, Toshkent matni, Toshkent metrosi, “O‘lka” Erkin Vohidov,

Alisher Navoiyning kabutar haqidagi “Hikoyat” nomli rivoyat berilgan. Shuningdek sohibqiron Amir Temur haqidagi matn berilgan.

2-snf ***Ikkinchi sinf o‘qish darsligida*** Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid “Alisher bilan bulbul”, “Shoir bilan shoh” matnlari hamda qo‘shimcha material sifatida Navoiy hikmatlaridan namunalar keltirilgan.

3-sinf ***Uchinchi sinf o‘qish darslarida*** Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bir qadar kengroq to‘xtalgan bo‘lib, adib Oybekning “Bola Alisher” nomli uch qismdan iborat hikoyasi berilgan. Bu hikoyada Alisher Navoiyning ixlos bilan maktabga ilk bora qadam qo‘ygani hamda ilm olishga bo‘lgan qiziqishi haqida bayon qilinadi. Bu hikoya orqali o‘quvchilarda ilmga, ustozga, kitobga va maktabga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ushbu darslikning “Ulug‘lardan o‘rganmoq oqillik” bo‘limida adib Po‘at Mo‘minning to‘rt qismdan iborat “Donolarning donosi” matni berilgan. Ushbu matnda Alisher Navoiy hayoti, uning jahon adabiyoti va vatan obodonchiligiga qo‘shgan hissasi haqida bayon qilingan.

Ayniqsa, Alisher Navoiy el-yurt farovonligi yo‘lida har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarga tayyor bo‘lganligi haqida quyidagicha bayon qilingan:

“Hazrat Navoiy eldan yordamlarini ayamasdilar. Hazrat Navoiy hirot aholisini og‘ir soliqlardan qutqarish uchun o‘zlarining shaxsiy mablag‘lari bilan yordam berganlar.

Alisher Navoiy Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalarini bunyod etganlar. Hazrat shaxsiy mablag‘lariga ko‘pgina xonaqoh, madrasalar, to‘qqizta hammom, o‘n to‘rtta masjid qurdirganlar.

Hatto masjid qurilishida Navoiyning o‘zlari ham choponlari etagini qayirib ushlaganlar, degan jumlar keltirilgan”.

Bundan shu narsani o‘quvchiga anglatish lozimki, Navoiy podsho vaziri bo‘sa ham, xalq uchun kerak bo‘lsa choponlari etagini qayirib ushlashni o‘zlari uchun faxr deb bilganlar. Bu hikoya orqali o‘quvchilarda xalq uchun, yurt ravnaqi uchun doimo halol mehnat qilish yuksak axloqiy fazilatlardan biri ekanligi haqida tushuncha beriladi.

Shuningdek, ushbu hikoyada o‘qituvchi faoliyatining mashaqqatli ekanligi ham hazrat Alisher Navoiy tomonidan ulug‘langanligi quyidagi hikmatli so‘z orqali bayon qilingan:

Haq yo ‘lida kim senga bir harf o‘rgatmish ranj ila,

Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

4-sinf ***To‘rtinchi sinf darslarida*** Oybekning “Alisherning yoshligi” hikoyasidan parcha berilgan bo‘lib, bu hikoyada Navoiyning yoshligi haqida bir qancha kengroq to‘xtalib o‘tilgan. Hikoya o‘quvchilarda tabiatga, qushlarga, san‘atga, ilmga, maktabga nisbatan axloqiy munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, hikoya oxirida o‘quvchilarga mustaqil ishlash uchun “Alisher men sevgan qahramon” degan mavzuda insho yozish uchun reja ham berilgan.

“O‘qish” darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini barkamollik xislatlatlarini shakllantirishda Alisher Navoiy merosi namunalaridan foydalanganlik darajasini qay holatda ekanligiga asosiy e‘tiborni qaratdik.

Biz boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil etarkanmiz, bugungi 1, 2, 3 sinf yangi darsliklarida ajdodlarimiz merosidagan namunalar kiritilmaganligini guvohi bo‘ldik. Bizning fikrimizcha yosh avlod o‘tmish ajdodlarimiz merosini o‘rgansa, tahlil etsa va xulosa chiqarsa, ular hayotidan andoza olishga harakat qilishsa ayni maqsadga muvofiq bo‘lardi. Biz ushbu holatni inobatga olgan holda aynan 4 sinf o‘quvchilarining 1-sinfidan to 4- sinfgacha qadar o‘qigan “O‘qish” kitob darsliklarini tahlil etib chiqdik. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ayrim mavzularda takror holda berilganligi, yoki juda qisqa ma’lumotlar kiritilganligini ko‘rdik.

Bizga yaxshi ma’lumki, Alisher Navoiyning klassik asarlari olmosday nodir va sermazmun, badiiy jihatdan serjilodir. Mana shunday mumtoz asarlaridan biri Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Lisonut-tayr”, “Nazmul javohir” kabi didaktik asarlari ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati cheksiz.

Barkamol insonni voyaga yetkazish yuksak ***estetik madaniyatni*** qaror toptirish, unda xalqimizning estetik qarashlarini shakllantirish singari ulkan vazifalarni allomalarimiz merosisiz amalga oshirib

bo‘lmaydi. Nafosat shunday gavhardirki, u har qanday o‘rinda kattaga ham, kichikka ham birdek yarashadi. Shuning uchun ham bobokalonlarimiz hamisha go‘zal xulq va axloqqa intilib yashaganlar. Go‘zal xulq va axloqni shakllanishida estetik tasavvurlarning o‘rni beqiyosdir. Bolalarda estetik tushuncha va tasavvurlarni tarkib toptirish pirovard natijada shaxsning estetik madaniyatini, uning ma’naviyati, aqliy salohiyatini shakllana borishiga zamin yaratadi. Zero, ma’naviyatli inson o‘z kasbining mahoratli sohibi bo‘lishi bilan birga madaniyat va san’atdan, uning tarixiy rivojlanishi tamoyillaridan ham xabardor bo‘lmog‘i lozim.

Mustaqillik sharofati tufayli o‘zbek xalqi o‘zining qadimiy durdonalari bo‘lmish ota-bobolar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni egallash, ulardan ijodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ustoz Navoiy **“Mahbub ul-qulub”** asarining xotimasida shunday deb yozadi: “Shunday qilib, bu bajarilgan ishning yaxshi-yomon sifati shunda zikr qilingandir: uning maqbul va nomaqbul holati ham shu yerda yozilgandir. Iloho, uni yaxshilar orasidan chetlama va yomonlar guruhiga qo‘shma...”

Ushbu bobda keltirgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganimizda, yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda eng muhim vositalardan biri badiiy adabiyotdir. Adabiyot insonni, uning hayoti va faoliyatini o‘rganadi, qahramonlarning kurashlari misolida qator axloqiy-estetik masalalarni qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari ularning ilk bilimlarni olishlari bilan tavsiflanadi. Ular o‘zlarining bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga intiladilar. Shuning uchun axloqiy masalalar o‘qish, ona tili va tarbiyaviy soat darslarida Alisher Navoiy asarlaridagi barkamol shaxs tarbiyasiga oid g‘oyalari asosida turli metodlardan foydalangan holda chuqur o‘rganildi.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

1. O'rganilgan ilmiy, pedagogik va badiiy manbalar shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri ekan.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishni "O'qish", "Ona tili", "Tarbiya" darslari, sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlar juda katta pedagogik imkoniyatlarga egaligi, ularda turli didaktik vositalardan foydalangan holda, shakllantirish tizimini belgilab berish zarurligi asoslandi.

3. Biz tanlagan va qo'llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari: kuzatish, savol-javob, anketa so'rovlari, turli yozma ishlar, pedagogik tajriba ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish darajasining amaldagi holatiga doir xilma-xil va maqsadga yo'naltirilgan axborotlarni to'plashga imkon berdi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish jarayonini samarali tashkil etish uchun uning manba va vositalarini belgilash zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish o'ziga xos tizimini vujudga keltirish zarurligi kuzatilmoqda.

II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

2.1-§. Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlar

Ilmiy izlanishlar davomida o‘tmishni o‘rganishning mohiyati, ayniqsa yoshlarda axloqiy-estetik sifatlarni tarbiyalashda Alisher Navoiy merosining tutgan o‘rni, undan foydalanish jarayonini tahlil qilishga harakat qildik. O‘z tarixini yaxshi bilgan, ajdodlarini e‘zozlagan xalqning istiqboli ham porloq bo‘ladi. Zero kelajakka tashlangan qadam hamisha o‘tmishdan boshlanadi. Mustaqillik sharofati bilan biz ham o‘zligimizni anglash, ko‘p asrlik ma‘naviy merosimizni chuqur o‘rganish va milliy qadriyatlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldik. Ayniqsa, hozirgi kunda dolzarb masala bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda ajdodlarning merosidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Axloqiy-estetik sifatlarni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi va o‘rni haqida so‘z borar ekan, bu meroslar orasida Alisher Navoiy merosining tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, ulug‘ mutafakkirning *“Mahbub ul-qulub”*, *“Hayrat ul-abror”* asarlari hikmatlar xazinasini, ibratli hikoyalar sarchashmasi hisoblanib, bu ikki asardagi har bir jumla, fikr hikmatnoma ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Umuman, Alisher Navoiyning *“Hazoyin ul-maoniy”*, *“Xamsa”*, *“Mahbub ul-qulub”*, *“Muhokamat ul-lug‘atayn”*, *“Munshaot”*, *“Vaqfiya”*, *“Nazm ul-javohir”*, *“Mezon ul-avzon”*, *“Majolis un-nafois”*, *“Hayrat ul-mutakayyirin”* kabi asarlari XV asrdan beri sharq xalqlari adabiy, ilmiy muhitida maktabu madrasalarida yakkaxon va oilaviy tahsilda barkamol yoshlarni tarbiyalashda dasturulamal bo‘lib kelayotirki, bu shoirning insonparvarlik g‘oyalari asrlar osha yanada qadrlil, azizli, el ko‘ngliga yaqin bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, Alisher Navoiyning o‘lmas badiiy-pedagogik g‘oyalari insonning, demakki bolalarning ham ma‘naviy-ruhiy, aqliy, axloqiy-estetik va boshqa jihatlardan jadal rivojlanishi jarayonini mukammalroq anglashga,

ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat sohalaridagi shu kunning amaliy vazifalari, muammolarini to'g'ri hal etish va bajarishga ko'maklashadi.

Navoiy merosida:

- ta'lim-tarbiya natijasida bola jamiyat uchun foydasi tegadigan komil inson bo'lib ulg'ayadi;

- odamlardan ajralib, yakkalanib qolgan, jamiyat ta'siridan tashqarida bo'lgan kishi inson qatoriga kira olmaydi;

- tarbiyaning maqsadi yoshlarni, bilimli, mehnatsevar, insonparvar, axloq-odobli, yaxshi fazilat egalari qilib voyaga yetkazishdir;

- ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilatdir;

- mehnat-boylik baxtli va farovon turmushning manbai;

- haqiqiy inson, halol-pok, insofli, mehnatsevar, to'g'ri so'z, sahovatli, hayoli, muruvvatli, kamtarin shaxsdir degan g'oyalar oldinga suriladi.

Biz tajriba ishlarimiz davomida Navoiy merosidagi mana shu g'oyalarni o'quvchilarni o'qitish jarayonida ongiga singdirishga harakat qildik. Ta'lim-tarbiya jarayonida Alisher Navoiy merosini, uning mazmun va mohiyatini o'quvchilarga yetkaza olish ularda axloqiy-estetik sifatlarni tarbiyalash zaminidir.

Amaliyot jarayonida ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tajribalarga boy ekanliklarini va ilg'or tajribalardan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanayotganliklarining guvohi bo'ldik. Buni darsni o'zgacha metod va usullarni mahorat bilan qo'llashlaridan ham bilsa bo'ladi. Ana shunday o'qituvchilarni haqiqiy ijodkor va mahoratli pedagoglar deyish mumkin.

O'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda jarayonida, ularning badiiy dunyoqarashini kengaytirishda, avvalo, shoir tarjimayi holini uning asarlaridagi rang-barang hayotiy tajribasi bilan uyg'un holda o'rganish ajoyib bosita bo'lib xizmat qiladi.

Afsuski, ba'zi o'qituvchilar darslarida shoir hayoti va ijodini o'rgatish zerikarli o'tiladi. Bunday darslarda o'quvchining qalbi hayajonlanishi, jonli fikr uyg'onishi, shoir shaxsiga, uning hayoti va ijodiga qiziqish uyg'onishi kerak. Buning uchun, birinchidan, qiziqarli, shoir hayotini aks ettiruvchi boy material qo'llanilishi kerak, ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak: shoir portreti, reproduksiyalari, haykalchalari, ikkinchidan, sinfdan tashqari

mashg'ulotlar, to'garaklar olib borish, suhbat, badiiy asarlarning magnit lentalaridagi yozuvlaridan foydalanish, spektakl va badiiy fil'mlarni tomosho qilish, badiiy havaskorlik to'garaklari, viktorina, ko'rgazma, adabiy jurnal, al'bomlar, muzeyga sayohatlarni tashkil qilish. Albatta, bularning hammasini tashkil qilib bo'lmaydi, lekin o'qituvchi o'quvchilarning yoshiga qarab, imkoniyati, qiziqishlariga qarab yuqoridagi mashg'ulotlarning ba'zilarini tanlab olishi mumkin. Bularning hammasi o'quvchilarning faolligini oshiradi.

O'qituvchi "Navoiy" mavzuning kirish qismiga katta mas'uliyat bilan tayyorlanishi kerak, o'quvchilarning shoir ijodiga qiziqishining mustahkam, barqaror bo'lishi shunga bog'liq.

Shu o'rinda Alisher Navoiy ijodidan ba'zi darslarni o'rganish

Ko'pgina maktablarda sinfdan tashqari o'qish bo'yicha suhbat-darslar zerikarli, savol-javob tarzda o'tadi. "Mening sevimli kitobim", "Mening sevimli qahramonim", "Alisher Navoiy she'rlari menga yoqadi" mavzusida insholar, sinfdan tashqari o'qishga bag'ishlangan so'rovnomalarga javoblar kabi ishlar olib boriladi.

Ilmiy-ommabop va badiiy filmlardan foydalanish. Kino o'quvchilarning eng sevimli san'at turlaridandir. U o'qituvchiga o'quvchilarni estetik tarbiyalashda qo'l keladi.

O'qituvchi filmni dastlab ko'rgan bo'lishi kerak. Uni tushuntirish qulay bo'lishi uchun shartli bir necha qismlarga taqsimlanadi. O'qituvchi zarur bo'lganda filmni to'xtatishi, qaytadan orqaga aylantira olishi zarur.

Ilmiy-ommabop, o'quv ta'limi, badiiy filmlar yil davomida rejaga asosan ko'rsatilishi kerak.

Badiiy filmlarni bo'lmasdan, oldin va keyin suhbat o'tkazgan holda ko'rsatilishi kerak. Filmdan oldingi suhbatda esa qay darajada o'zlashtirganligi aniqlanadi.

Biz teleko'rsatuvdan ham foydalandik. Teleko'rsatuv orqali muntazam ravishda badiiy filmlar, spektakllar, turli adabiy mavzulardagi ko'rsatuvlar, musiqiy, rassomlik san'atiga bag'ishlangan, axloqiy ko'rsatuvlar berib boriladi. Bu ko'rsatuvlarning teleko'rsatuv dasturlaridan aniqlab, o'quvchilarga tavsiya yoki topshiriq qilib beriladi. So'ng esa ko'rsatilgan filmlar yuzasidan savol-javob, suhbat-munozara o'tkaziladi.

O'quvchilar o'qib-o'rganib kelishlari uchun Navoiy hikmatli so'zlari berilishi mumkin.

Mavzu: So'z mulkining sultoni.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarda qiroat bilan to'g'ri, ongli, ifodali va ravon o'qish malakalarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish orqali kasb-hunar o'rganishga mehr uyg'otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning vatanimiz tarixi, ajdodlarimiz merosiga haqidagi bilimlarini boyitish, tafakkurini o'stirish.

Darsning tipi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning metodi: suhbat, hikoya, "dumaloq stol", tarmoqlar, baliq skeleti.

Darsning jihozi: mavzuga oid taqdimot materiallari, Alisher Navoiyning rasmi, asarlaridan namunalar, mavzuga oid rasm va tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. O'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish va darsga hozirlash. O'qituvchi o'tgandarsni boshlashdan oldin sinfdagi o'quvchilarni 4 guruhga bo'lib oladi.

II. **Guruhlarga topshiriq.** O'qituvchi "Dumaloq stol" metodidan foydalanib, o'quvchilarga quyidagi savollar yozib qo'yilgan qog'oz varag'I bilan murojaat qiladi:

- bolalar biz o'tgan darslarda ajdodlarimizdan kimni o'rgandik?
- U kishi kim bo'lgan ekanlar?
- Safarga junashdan oldidan Amir Temur nima qildi?
- Amir Temur nega bunday qildi?

Har bir o'quvchi o'zining javobini yozib qo'yadi va varaqni boshqa guruhdagi o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javoblarini yozib quyishadi, keyin muhokama bo'ladi, noto'g'ri javoblar uchiriladi, to'g'ri javoblar soniga qarab guruh a'zolarining bilimiga baho beriladi. Bu metodni og'zaki tarzda ham tashkil etish mumkin.

III. Yangi mavzuni o'tishga tayyorgarlik.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yuqoridagi savollarga bergan javoblarini umumlashtiradi.

O‘qituvchi:

-Bugun biz ajdodlarimizdan yana bir kishi bilan tanishamiz.


Xattaxtaga Alisher Navoiyning rasmi ilinadi.

IV. O‘qituvchi Alisher Navoiy haqida: uning tun yili, joyi, oilasi tog‘risida ma’lumot beradi. U kishining dovrug‘i olamga ketganligi, o‘zining g‘azallari va bir necha kitoblari bilan mashhurligini aytadi. Navoiyning bu darajada mashhurligi uning haqiqiy mehnatsevar inson bo‘lganligidan dalolat ekanligi agar har bir o‘quvchi o‘z tanlagan kasbiga mehr quysa va uni qadrlasa xalq orasida qadr topishi haqida ma’lumot beradi.(Alisher Navoiy haqidagi kinofilmdan qisqacha namoyish etiladi)

V. Alisher Navoiy haqidagi matnni o‘qib beradi, o‘quvchilar diqqat bilan tinglaydilar.

VI. O‘qituvchi: Bolalar, Alisher Navoiy bizga juda ko‘plab she‘rlar yozib qoldirish bilan birgalikda bir qanca hikmatli so‘zlarni ham yozib qoldirganlar. Biz bugun ularni o‘rganamiz. O‘qituvchi o‘quvchilarga hikmatli so‘zlarni o‘qib beradi va har bir hikmatli so‘zga izoh beradi, mazmunini tushuntiradi. O‘qituvchi Navoiyning hikmatli so‘zlarini tarmoqlar metodi orqali bayon etadi.

VII.O‘qituvchi “Baliq skeleti” texnologiyasi orqali o‘tilgan mavzuni mustahkam-laydi. Buning uchun baliq modeli chizmasi vatmanga chizilib, uning tepa qismiga echilishi kerak bo‘lgan muammolar yoziladi. Pastga berilgan savollarga javob yoziladi.



- 1.Alisher Navoiy kim bo‘lgan?
- 2.Alisher Navoiyni nima uchun “So‘z mulking sultoni” deyishadi?
- 3.Alisher Navoiyning hikmatli so‘zi?

4. Alisher Navoiy haqida yana qanaqa ma'lumotlarni bilasiz?

5. Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tuproqqomu ketkumdir oxir-bu kim tomonidan aytilgan fikr?

VIII. Dars umumlashtiriladi va xulosaladi. Darsda faol qatnashgan guruh a'zolari rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida Alisher Navoiyning kasb-hunarga oid hikmatli so'zlarini yod olib kelish vazifasi beriladi.

Alisher Navoiy

Dars nomi: Ulug' bobom.

Maqsad:

- O'quvchilarning she'rni ifodali o'qish malakasini rivojlantirish, nutq boyligini oshirish
- O'quvchilarni Alisher Navoiy merosidan bahramand bo'lishga va qiziqtirish va kitobni qadrlashga o'rgatish. Milliy qadriyatnarga, kitobga va badiiy asarga qiziqishini oshirish orqali o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish.
- O'quvchilarda tartib-intizomga rioya qilish, o'zgarar mehnatini hurmat qilish hissin rivojlantirish, o'zaro yordam, mehr-oqibat, bir-birini qo'llash tuyg'ularini o'stirish

Jihoz: A4 formatli qog'oz, matnga oid rasm

Dars jarayoni:

1-bosqich. O'tgan mavzuni so'rab baholashda quyidagi savollarni berish mumkin:

- Kichkina Alisher qanday vaziyatga tushib qoldi?
- U qanday yo'l tutdi?
- Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz
- Qissadan hissa chiqaring.

O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini tinglaydi va ularni umumlashtirib, yakuniy xulosa chiqaradi.

10 daqiqa

2-bosqich. O'qituvchi yangi mavzuni e'lon qilishdan oldin o'quvchilardan Alisher Navoiyning kimligini, u haqida nima bilishlarini so'raydi. O'quvchilar javoblarini umumlashtirib, yangi mavzuni e'lon qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga she'rni obrazli qilib, ifodali o'qib beradi. She'ring mazmuni so'zlanadi.

Izohli lug'atdan foydalanib lug'at ishi o'tkaziladi.

She'r o'quvchilarga o'qitiladi

Navbat bilan 3 ta bandga bo'lib, 3 nafar o'quvchi she'rni o'qiydi.

O'qituvchi o'quvchilarga she'r mazmuniga doir savollar bilan murojaat qiladi.

Mustaqil topshiriq. She'ring oxirgi bandini o'qib uning ma'nosini tushuntirib berish topshirig'i beriladi. O'quvchilar qiynalsa o'qituvchi yordam beradi. **10 daqiqa**

3-bosqich. O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'ladi. O'quvchilarga A4 formatdagi qog'oz tarqatiladi.

Guruhlariga topshiriq.

1-topshiriq. Alisher Navoiy bobomiz haqida nimalarni bilasiz?

Bilganlaringizni yozing.

2-topshiriq. Alisher Navoiyning kasb-hunar, ilm o'rganishga oid hikmatlaridan bilganlaringizni yozing.

Taqdimot. Guruhdan 2 nafar o'quvchi guruh ishini taqdimot qiladi. **10 daqiqa**

Muhokama:

*Dars sizga yoqdimi?

*Sherning asosiy mazmunini aniqlang.

*Alisher Navoiy qanday asarlarini bilasiz?

*Alisher Navoiyning "kasb-hunar" organishga oid hikoyatini bilasizmi?

Darslikdagi mavzuga doir qo'shimcha materiallar bilan ishlanadi.

O'quvchilarda kasb-hunar o'rganishga oid ijobiy hislarini shakllantirish uchun o'quvchilarga "Saddi Iskandariy" dostonidan bir hikoyatni mazmun mohiyatini tushuntiradi:

Ulug' shoir kasb-hunar egallash, ilm o'rganishning ahamiyati va xosiyati haqida "Saddi Iskandariy" dostonida quyidagi hikoyani keltiradi.

"Xurosonda ikki o'rtoq bo'lgan edi. Ular bir-birlarini g'oyat hurmat qilar edilar. Zamon hodisalari ularning ishiga shikast etkazdi; maishat-tirikchilik ishida qo'llari qisqa bo'lib qoladi.

Bittasi mamlakatni, yurtni tark qilmadi, lekin bittasi,-safarni ixtiyor qildi.

U yoʻlda ajib ishlar koʻrdi. Uning yoʻli unon sariga tushdi, oʻlik obihayvonga etushgunday edi.

Tuprogʻi hikmatli er koʻrdi, bir qancha vaqt u erda turdi: bilimga, ilm kasb etishga kirishdi. U donishmandlar bilan hansuhbat boʻldi, havas-ragʻbat-qiziqish bilan koʻp ilm va hunarni kasb etdi.

U qobiliyatli edi, shunga koʻra ham hisobsiz ilmdan xabardor, bilimda jahon faylasufi boʻldi”

Shoir ilm-hunarni puxta oʻrganish bilan birga hamma vaqt dono kishilar bilan maslahat qilish zarur ekanini, maslahatli ishning samarali boʻlishini koʻrsatadi. U ilm-hunarni har narsadan yuqori qoʻyadi. Qayeda odamlar ilmli boʻlsalar, ilmga, hunarga alohida diqqat etilsa va ular rivojlantirilsa, shu erda davlat borgan sari rivojlanadi va donolar maslahati bilan ishlagan davlat sharaflı boʻladi, baxtli boʻladi. Ana shuning uchun ham yosh avlodga bilim-hunar oʻrgatish, fan-ilmni xalq oʻrtasida keng tarqatmoq zarur:

”Hunarga intil, xalqqa hunar soch
Eshiklar bekilsa, er boʻl, ularni och
Har kim oʻrganishni hisoblamasa or,
Suvdan dur, toshdan gavhar chiqarar”

10 daqiqa

Baholash. Oʻquvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarilish darajasiga qarab baholab boriladi. Darsning yakunida umumiy ballar eʼlon qilinadi va faol, bilimdon oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

5 daqiqa

Fan: Oʻqish.

Mavzu: Alisherning yoshligi

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy maqsad: Matnni tez, ongli va ifodali oʻqishga oʻrgatish va A. Navoiy haqida bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: Matnni oʻqish orqali oʻquvchilarda Alisher Navoiyning yaxshi fazilatlarini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bobokalonlarimiz haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, intellektual qobiliyatini tarbiyalash, nutqiy fikrlashni rivojlantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: Noan'aviy, Savol – javob, bahs – munozara, interfaol usullar, interaktiv metodlar.

Darsning jihozi: Darslik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar,

Darsning qoidalari: Mustaqil fikr, aniqlik, tirishqoqlik,

Darsning texnologik xaritasi

№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3
3	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10
4	Quvnoq daqiqa	2
5	Yangi mavzuni bayoni	15
6	Yangi mavzuni mustahkamlash	5
7	O'quvchilarni rag'batlantirish	5
8	Uyga vazifa berish	5

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

A) O'quvchilar bilan salomlashish;

(O'qituvchi kirib keladi va bolalar bilan salomlashadi. Assalomu – alaykum; O'quvchilar alik olishadi. Vaalaykum - assalom).

O'qituvchi: Hamma soppa – sog'lommi?
Darsimizga tayyormi?

O'quvchilar: Bizlar soppa – sog'lommiz
Darsingizga tayyormiz.

O'qituvchi: Darsni o'tishdan maqsad?

O'quvchilar: Vatanga xizmat.

O'qituvchi: Vatanga xizmat?

O'quvchilar: Oliy himmat.

O'qituvchi: Biz kimmiz?

O‘quvchilar: Barkamol avlod.

O‘qituvchi: Bizning shior?

O‘quvchilar: Doim xushyor.

B) Navbatchi hisoboti;

O‘qituvchi: Sinfda kim navbatchi
Bir kunlik nazoratchi?

Navbatchi o‘quvchi: Sinfda men -----navbatchi. Bir kunlik nazoratchi. Sinfimizda -----nafar o‘quvchi bor. ----nafar o‘g‘il bola, ----nafar qiz bola, o‘g‘il bolalardan -----shu sababli dars qoldirgan, qiz bolalardan -----shu sababsiz dars qoldirgan).

O‘qituvchi: Lattachamiz bormi?
Bo‘rlarimiz bisyormi?
Dokamiz tayyormi?
Ishlamoqqa imkon bormi?

O‘quvchilar: Lattachamiz bor.
Burlarimiz bisyor.
Dokamiz tayyor.
Ishlamoqqa imkon bor.

O‘qituvchi: Qani bo‘lamiz birdam!
Tashvishni qilamiz barham!
Qiyinchilikni yengib har dam!
So‘ng olamiz bizlar dam!

O‘quvchilar: Qani boshladik unda.


O‘qituvchi: (Uyga berilgan vazifani ko‘rsatib)
Kimlar tayyordir bunga
Baho quyay men shunga
Besh olib qaytsin uyga.

O‘quvchilar: Qani ustoz u nima?

O‘qituvchi: G‘am yema juda oson.

O‘quvchilar: Bering unda savolni
Men olay barcha ballni.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash



Doskaga yuqoridagi rasm chiziladi va sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi. Har bir guruhga matndagi asosiy qaxromonlar yoki joy nomlari beriladi.

Guruhga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi.

(Savollarni berishdan oldin ularga biz hozir bahor keldi treng metodini o'ynaymiz deyiladi, siz berayotgan javoblar yuqorida chizilgan daraxtlarimizga kuch baxshida etadi. Ularning barglar chiqarishiga yordam beradi . Chunki sizning javoblaringiz yerga berilgan ishlovni, qo'yilgan suvlarni, quyosh nuri, bulutlardan tushayotgan yomg'ir suvlari bo'lib xizmat qiladi).

1. Pahlovon va shoir hikoyatining muallifi kim?
2. Xalqimiz azaldan o'z o'g'lonlarini qanday ruhda tarbiyalagan?
3. Pahlovon Mahmud qayerga safarga bordi?
4. Mahmud nima uchun sultonning taklifini rad etdi?
5. Mahmud musobaqalardan oldin qayerga borar edi?
6. Mahmud qabristonda kimni uchratdi?
7. Mahmud nima uchun o'zini zaif va lapashang qilib ko'rsatdi?
8. Sulton nima uchun ziyofat berdi?
9. Tantanalardan so'ng hokim boshchiligida arkoni davlat qayerga borishdi?
10. Pahlovon Mahmudning yosh kurashchidan yengilishining sababi nimada deb o'ylaysiz?
11. Changalzorda qanday voqea ro'y berdi?
12. Mahmud ovda qanday jasorat ko'rsatdi?

13. Ziyofatda sulton Mahmuddan nimani so‘radi?
14. Pahlovon Mahmud sultondan nimani iltimos qildi?
15. Hikoyat qahromoni Mahmud haqidagi fikrlaringiz?


Quvnoq daqiqa

Quvnoq daqiqa o‘tkaziladi.


Yangi mavzuni bayoni

Mavzu: Alisherning yoshligi.


Yangi mavzu “Bumerang” texnologiyasi asosida tashkil qilinadi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linadi. Guruhlarga o‘qituvchi tamonidan tayyorlanib kelingan Alisherning yoshligi matnining har bir (Birinci guruhga birinchi, ikkinchi guruhga ikkinchi, uchinchi guruhga uchinchi) bo‘limi beriladi.



Guruxdagi har bir ishtirokchi raqamlanadi. O‘quvchilar o‘zlariga berilgan matnni o‘qib o‘zaro muhokama qilishadi. Shundan so‘ng bir guruhda nechta o‘quvchi bo‘lsa, shuncha guruh hosil qilinadi. Bunda har bir guruhdan bittadan ishtirokchi olinadi misol uchun har bir guruhdan bir xil raqamli ishtirokchilar bir guruhga yig‘iladi.



Bu yerda o'quvchilar ham o'quvchi ham o'qituvchi vazifasini bajaradi. Ular o'zlari o'rgangan bo'limini qolgan ikki o'rtog'iga tushuntiradi. Bu vaqtda o'qituvchi. O'rtoqlari o'zlari o'rgangan bo'limni tushuntirayotgan vaqtda esa o'quvchi vazifasini bajaradi. Ular shu tarzda bir – birlariga tushuntirib bo'lgach guruhlar dastlabki holatiga qaytadi.



O'qituvchi endi o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshiradi va baholaydi.

Yangi mavzuni mustahkamlash, o'quvchilarni rag'batlantirish.

O'qituvchi bir o'quvchiga uchta savol beradi. Har bir savoli, har bir bo'limdan bo'ladi. Agar o'quvchi uch savolga ham to'g'ri javob bersa, uch ball qo'yadi. $1+1+1=3$ va keyingi guruhlardagi shu raqam ostida ishtirok etayotgan o'quvchiga ham 1 balldan qo'yadi sababi ular bu o'quvchiga to'g'ri tushuntirgan. Agar keyingi guruhdagi shu raqam ostida ishtirok etayotgan o'quvchilar ham savollarga to'g'ri javob bersa bu o'quvchining bali yana ikki balga ko'payadi.

$3+1+1=5$, Agar keyingi guruhdagi shu raqam ostida ishtirok etayotgan o'quvchilar savollarga noto'g'ri javob bersa bu o'quvchining bali ikki balga kamayadi $3-1-1=1$ o'quvchilar shu tarzda baholanadi.

Uyga vazifa: Alisherning yoshligi mavzusini o'qib kelish.

O'quvchilarni baholash uchun foydalanish mumkin bo'lgan savollarni ilova qilamiz.

1-bo'lim yuzasidan.

1. Alisherning otasining ismi nima edi?
2. Alisherning yoshligi hikoyasini kim yozgan?
3. Shag'zoda Husayin va Alisher qayerga borishdi?
4. Usha paytda Husayn necha yoshda edi?
5. Husayn qanday keyingan edi?
6. Husayn Alisherga nima dedi?
7. Alisher bilan Husayn bog'da nimalarni tamosha qilishdi?
8. Maydonda kimlar bor edi? Va ular nima qilishayotgan edi?
9. Maydon chetida beklar nima deb turishibdi?
10. Alisher qanday xayol bilan band edi?
11. Alisher va Husaynning suhbatiga qarab ularning nimaga qiziqishlarini ayting.

2 – bo'lim yuzasidan.

1. Alisherning onasining ismi nima?
2. Kanizaklar nima tashirdilar?
3. Alisher onasiga nima dedi?
4. Alisher hovlida nima qilayotgan edi?
5. Bolalar qanday kiyinishgan ekan?

6. Daraxtlar orasidan nima otilib chiqdi?
7. Kiyik Alisherga nima qildi?
8. Bek Alisher to'g'risida nima dedi? Otasi – chi?
9. Alisher nimalarga qiziqardi?
10. Alisherga tog'asi nima olib keldi?
11. Alisherning tog'asi nima haqida hikoya qilib berdi?

3 – bo'lim yuzasidan.

1. Alisherning vatani qayer?
2. To'satdan yana poydo bo'lgan kiyik nima qildi?
3. Ikkinchi bola nima dedi?
4. Alisherning-ov qilmoq merganlik-ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi-fikridan nimalarni angladingiz?
5. Bolalarning kattarog'i Alisherga qanday savol berdi?
6. Alisherga "Olim odam xor bo'lmaydi" deb kim o'rgatgan?
7. Hikoyaning uchunchi qismiga qanday sarlovha qo'yish mumkin?
8. Alisher nima bolalarga aytmadi?
9. Alisher g'azallarni qayerda tinglardi?
10. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida A.Navoiy to'g'risida nima deganlar?

2.2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishni tashkil etish metodikasi

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdan iboratdir.

Xuddi dars jarayonida bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o'qituvchisining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ulardan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalarni qo'yishi shart. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilik hayoti, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Sinfdan tashqari tadbirlar bevosita o'quvchilarni yoshlikdan barkamol shaxs qilib tarbiyalash va o'qitish jarayonining asosiy vosita hisoblanadi. Bu tadbirlarni tashkil etishda xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;
- tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Tadbirni rejalashtirish.

Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.

Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash.

O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.

Tadbirni amalga oshirish.

Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo mavzu va uning ahamiyatliligi, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak.

2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag'batlantirish.

3. Darsdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash.

4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilish jarayonida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Xuddi shunday ijobiy sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirishda ertaliklarning o'z o'rnini bor.

- **Ertaliklar** bolalar uchun juda qiziqarli, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Ertaliklarga tayyogarlik jarayonining o'ziyoq bolalarda qiziqishni o'yg'otadi. Bolalar ertalik

munosabati bilan milliy qadriyatlarimiz namunalari bo'lmish topishmoq, maqol, tez aytishlarni yod oladilar.

- Biz kuzatishlar olib borgan maktablarning aksariyat qismida ertaliklarni o'tkazishga kam e'tibor berilishi aniqlandi. Bu sohadagi talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bir-necha bor ertaliklar uyushtirdik. Bizningcha, ertaliklar quyidagi tartibda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;

- ertalikning dasturini tuzish;

- ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;

- ertalik o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;

- ertalikni muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

Ertalikka ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4-sinflari o'rtasida savol-javob kechalarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Aynan to'rtinchi sinf o'quvchilarini nazarda tutishimizdan maqsad, ular bu borada anchagina bilim va ko'nikmaga egalar. Ayniqsa, ular o'z sinfi sha'nini himoya qiladigan darajaga yetganlar. Darsdan va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida bunday tadbirlarning o'tkazilishi alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, bolalarning bo'sh vaqtlari chegaralanadi, ularning ma'naviy dunyoqarashi kengayadi. Ikkinchidan, bolalar dars davomida olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Uchinchidan esa, uyushqoqlik, bilim olishga havaslari yanada ortadi. Ana shunday bellashuvlardan biri «Biz buyuklar avlodi» mavzuda o'tkazilishi mumkin. Bunda sinf o'quvchilari ikki guruhga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e'tibor beriladi. Bellashuvni birinchi bosqichda sinf, keyinchalik, maktablar o'rtasida ham uyushtirish mumkin. Tadbirni tayyorlash uchun kamida bir oy muddat talab qilinadi. Har ikkala tomon kecha o'tkaziladigan kunni belgilab olgach, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab direktori va yordamchilari bilan birgalikda

kechaniing shartlarini belgilab oladilar. Bellashuv shartlarini turlicha tuzish mumkin.

O‘quvchilar bellashuv bahonasida Alisher Navoiy hayoti va ijodi, hikmatli so‘zlari, ruboyilari, asarlari bilan yaqindan tanishailar va yod oladilar. Navoiy ijodi namunalariga murojaat qilishadi. Bu kabi bellashuv orqali o‘quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash bilan birga, sinfdoshlari oldidagi mas’uliyatni his qiladilar. Bellashuv shartlaridan ko‘rinib turibdiki, vazifalar guruh a’zolaridan astoydil tayyorgarlik ko‘rish, Alisher Navoiy haqida ma’lumotga ega bo‘lish, savollarga javob berish uchun esa darslik va qo‘llanmalarga murojaat qilish, Navoiy asarlariga mehr-muhabbatni namoyon qilishlari talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan bu kabi ishlarga tayyorgarlik ko‘rishda o‘quvchilar Alisher Navoiy ijodi namunalariga murojaat qilishlari, (albatta o‘qituvchi va ota-onalar ko‘magida) shoirning hikmatli so‘zlari, ruboyilarini yod olishlari, imkoni bo‘lsa “Alisher Navoiy” muzeyiga sayohat qilishlarini uyushtirish lozim. Chunki, mana shu ishlar orqali o‘quvchilarning Alisher Navoiy va uning ta’lim tarbiyaga oid ma’lumotlari haqidagi tushunchalari kengayadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Alisher Navoiy ijodi bilan yaqindan tanishtirish va tarbiyalashda xizmat qiluvchi sinfdan tashqari tadbirlarning yana bir shakli **sayohatlardir**. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan “Alisher Navoiy” nomidagi kutubxonalarga uyushtiriladigan sayohatlarning ahamiyati katta. Sayohat davomida o‘quvchilar bevosita tarix bilan ro‘baru keladilar. Sayohat haqida o‘qituvchi o‘quvchilarga xabar berishi bilan ularda ko‘tarinki kayfiyat hosil bo‘ladi. Chunki sayohatlar uyushtirish orqali bolalarda dars jarayonida hosil bo‘lgan zerikish, toliqish alomatlari bartaraf etiladi.

Bu jarayonda asosiy o‘rinni o‘qituvchi egallaydi. Chunki o‘qituvchi ushbu sayohatlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Alisher Navoiy merosiga qiziqishni shakllantira olishi, adib ijodi, hayoti haqida to‘liq tushuncha berishi kerak. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- o'qituvchi rahbarlikni qo'lga olgan holda, o'quvchilar diqqatini kuzatilayotgan obyektga qarata olishi;

- sayohatning maqsadi aniq belgilab olishi va rejasini ishlab chiqishi;

- sayohat davomida o'quvchilarda Navoiy hayoti va merosiga nisbatan mehr uyg'otish bilan birga, ularda ana shunday buyuk insonlar avlodi ekanligi uchun milliy g'urur va iftixorni shakllantirib borishi;

- uyushtirilayotgan sayohat orqali shariyatga muhabbat, Navoiy merosini asrash, shoir ijodiga e'tiqodni tarbiyalab borish ko'zda tutiladi.

Shu bilan bir qatorda tashkil etilayotgan sayohatning muddati oldindan belgilab qo'yilishi hamda bundan ota-onalar xabardor bo'lishi lozim. Sayohatlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Sayohatga tayyorgarlik ko'rish.

2. Sayohatni o'tkazish.

3. Taassurotlarni xulosalash, yakunlash.

Taassurotlarni xulosalash sayohatdan keyin uyushtiriladi. Bular yozma yoki og'zaki xulosalash, ya'ni sayohat to'g'risida suhbat uyushtirish, insho yoki hikoya yozish bo'lishi mumkin. Sayohatda faol bo'lgan, jamoat joylarida o'zlarini yaxshi tutgan bolalar rag'batlantiriladi.

O'qituvchi sayohat so'ngida o'quvchilarga ular kuzatgan to'g'risida insho yozib kelishlarini uyga vazifa qilib beradi. Shu tarzda ular Navoiy hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar haqida kengroq tushunchaga ega bo'lib boradilar

To'garak ishlari

Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodini o'rganish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish to'garakning maqsadini tashkil etadi.

To'garakda quyidagi ishturlari olib boriladi:

-ruboyini ifodali o'qish, hikmatli so'zlarni, asarlarni o'rganish va ularni muhokama qilish;

-to'garak a'zolariga Navoiy merosiga oid mavzudagi maruzalarni bayon qilish va eshitish;

-devoriy gazetalari, taqdimotlar tayyorlash;

-adabiy kecha, munozara (baxs) larga tayyorgarlik ko'rish

-muzey va teatrlarga borish.

Maktablarda o‘quvchilarni Navoiy merosiga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashda **“Navoiy asarlarini o‘rganamiz”** deb nomlangan sinf burchagi tashkil etish mumkin. Bunda asososan sinf kitob javonlariga Navoiy ruboiylari, hadislar va asarlari bir oy davomida joylashtiriladi va har bir o‘quvchisiga darsdan so‘ng Navoiy ijodiga oid nimanidur ertagacha o‘rganib kelish topshirig‘i beriladi. Harftaning oxirida eng ko‘p Navoiy ijodi haqida ma’lumot o‘rgangan o‘quvchilar Navoiy asarlari bilan rag‘batlantirib boriladi.

Tadqiqot ishimiz davomida ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlarini kuzatdik va ish tajribalari bilan tanishdik. Ayniqsa, men tadqiqot mavzuimdan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarning Alisher Navoiy mavzusiga bag‘ishlangan sinfdan tashqari darslarini kuzatib, tahlil qilishga harakat qildim.

O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda, Vatanimiz tarixini o‘rgatishda shuni unutmashligi kerakki, vatanimiz tarixi, ajdodlar merosi, madaniy yodgorliklarni o‘rganish va asrash Vatanga bo‘lgan mehr, muhabbat tarbiyalash bilan birga tarix saboqlarini oladilar va ijtimoiy hayotga moslashadilar.

Biz o‘quvchilarni Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, barkamol shaxs tarbiyasiga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish maqsadida sinfdan tashqari tadbirlar tashkil etdik. **“Donolar donosi”** nomli tadbir ishlanmasini misol tariqasida keltirishni joiz deb bildik.

Mavzu: “Donolar donosi” (ertalik tadbir ishlanmasi).

Tadbirning maqsadi:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishtirish;
2. Navoiy merosidagi vatanparvarlik g‘oyalar orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish;
3. Alisher Navoiy adabiy merosining ilm-fan, madaniyatimizning taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirish.

Tadbir jihozi: shoir portreti, did bilan yozilgan sarlavha, qo‘shiqli disk, plakatlar, teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishi.

Tadbirning borishi:

O‘qituvchi: Har bir xalqning nomini va shuhratini ellarga tanitib ming yillarga olib o‘tadigan buyuk insonlar bo‘adi. Mir Alisher Navoiy bobomiz

ham ana shunday insonlardan biridir. Biz uchun bobomizning har bir hikmati, har bir so'zi eng qimmatli boyligimizdir. Darhaqiqat, hech narsa Navoiyning teran nigohidan chetda qolmagan. Bugun biz ana shu bobomizning asarlari va unda yoritilgan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan "Donolarning donosi" mavzusidagi ertalik tayyorlab keldik, marhamat tomosha qiling.

Kuy chalinib o'quvchilar kirib kelishadi.

1-bola: Ulug' odamlar oramizda bir umr yashaydilar. Qiyofalari dillarda, nomlari esa tillarda. Ularga hamma havas qiladi.

2-bola: Atrofga qarasang bobomiz nomi bilan ataluvchi ismlar juda ko'p.

3-bola: Shaharu oliy ilm dargohlari, ko'chalaru xiyobonlar, teatr va metro bekatlari ham bobomiz nomlari bilan ataladi.

4-bola: Bularning hammmasi ulug' shoir, olim va mutafakkir, buyuk davlat arbobi, hazrat donolarning donosi Navoiy bobomizning hurmatlari uchundir.

Ko'rinish "Alisher va bulbul".

1-bola: Alisher yoshligidan aqlli va ziyrak bola bo'ib o'sdi. U to'qqiz yoshidan she'r yozishni mashq qildi. Bir kuni boqqa chiqib, she'r o'qidi.

Navoiy: *Bor emush qaqnus degan bir turfa tayr*

Hind mulkida anga oromi sayr

Shakli matbuvi tovonu paykari,

O'zga naqshu rang birla har pari.

Bulbul: Ey xushovoz shoir ovozing buncha ham yoqimli. Bulbullar navosidan ham ta'sirli ekan.

Oting nima?

Alisher: Mening ismim Alisher.

Bulbul: Bildim, bildim yosh shoirsan. Endi o'zingga taxallus tanlab ol.

Alisher: - "Navo" bunchalar go'zal so'zdir, endi g'azallarim tagiga "Navoiy" deb yozurmen.

5-bola: Bobomiz Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida dunyoga kelgan. Bolalik chog'laridanoq hammaning e'tiboriga tushganlar. Uni 4 yoshidanoq maktabga berganlar. Maktabda sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qiganlar.

6-bola: Eng avvalo, odobli bo‘lganlar, ko‘p kitob o‘qiganlar. O‘z yurtidan uzoqda yashagan kishilarga atab, quyidagi misralarni yozganlar:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘mas emish.

7-bola: Alisher Navoiy asarlarida vatan, vatanparvarlikka oid ma’lumotlar mavjud bo‘lib hozir biz 4 sinf o‘quvchilari tomonida tayyorlangan “*Kabutar*” nomli hikoyatiti asosida sahnalashtirilgan tomoshani namoiyish etamiz. (Sahnaga hikoyatga qatnashuvchi o‘quvchilar chiqib kelishadi)

8-bola: Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘z vatanlari Xurosonni..

Ziynat aro ravzai rizvondir ul,

Ravzani qo‘y, mulki Xurosondir ul

Shuningdek, shoir ona shahrini jannatga qiyoslaydi. Xuroson jahonning ko‘ksi, Hirot esa uning yuragidir deb ta’kidlaydi. Hirot shahrining maftunkorligi, go‘zal tabiatining tasviri shoir qalamida o‘z jilvasini topadi. Shoir vatanining tasvirini keltirar ekan, uning go‘zalligi oldida hayrati yanada oshadi:

Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri.

Bir-biridan turfa aning har biri

9-bola:Yosh chog‘idanoq yozgan she’rlariga ustozlari ham qoyil qolganlar

Orazin yopqoch ko‘zimdin, sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

Alisher Navoiy yoshligidan ona tilini yaxshi bilib fors, arab tillarini puxta o‘rganganlar. Fors, arab tilida yozgan g‘azallariga “Foniy”, turk tilida yozgan g‘azallariga “Navoiy” taxallusini qo‘yganlar. Biz ham bobomizning ijodini o‘rganamiz. Ona tilimizni sevamiz.

Qo‘shiq “Ona tilim”

10-bola: Alisher Navoiy bobomiz vatanga bo‘lgan muhabbatlari birinchilardan bo‘lib ona tilimizda “Xamsa” nomli “Besh doston”dan iborat asari mazmunida ham o‘z aksini topgan.

Emas oson bu maydon ichra turmoq.

Nizomiy panjasiga panj o‘rmoq.

*Kerak sher oldida ham sher jangi,
Agar sher o'lmasa bore palangi.*

11-bola: Asarning birinchi qismi “Hayrat-ul abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) dostoni boʻib, bu doston pand-nasihat shaklida yozilgan 64 bob 70 maqomdan iborat.

*Oni saxiy anglagil ey xishmand,
Kim oni davlat qilibon sarbaland.
Harli agar yaxshidirirga tavoh,
Kimsadin emas tamai malu jon.*

12-bola: Ikkinchi doston “Farhod va Shirin” dostoni boʻlib, Eron shohi Xisrav va Shirin orasidagi mojarolarni bayon qiladi. Navoiyning vatanparvarlik hissi uning asarlarida va yaratgan obrazlarida juda yoqqol koʻrinadi.

Xalqni vatanga, el-yurtga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadi, Navoiy oʻzining asarlaridagi koʻpchilik ijobiy obrazlarni vatanparvar qilib yaratdi. Farhod bilan Shirin Eron shohi Xisravni Shirinning vataniga –Armanistonga kiritmaslik uchun qattiq kurash olib bordi. Iskandar oʻz otasining “mulkinga begonani qoʻymagʻil” degan vasiyatini umrining oxirigacha bajarish uchun kurashi.

Vatanni himoya qilish va uni dushmandan saqlash uchun:

“Ayolu vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor”

Yani vatan uchun kishi joni boricha, imkoniyat boricha urishadi, deydi Navoiy.

13-bola: Uchinchi doston “Layli va Majnun” dostoni boʻlib sharq adabiyotida hamgin, dardli dostondir.

*Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu afsonani hikoyat.
Men xastaki bu raqamni chekdim,
Yozmoqqa bu ishqiqi jovodina.
Maqsadim emas edi afsona.*

14-bola: Toʻrtinchi doston “Sabai sayyor” dostoni boʻlib, yaʼni “Yetti sayyora” degan maʼnoni bildiradi. Bu doston ishqiy doston boʻlib 38 bob va 5000 baytdan iborat.

*Ki jahon kimsaga vafo qilmas,
Shoxlig‘ tarkiga kiro qilmas.*

15-bola: Beshinchi doston “Saddi Iskandariy”, ya’ni “Iskandar devori” ma’nosini bildiradi. Bu sharqdagi eng mashhur siymolardan Iskandar Zulqaynarga bag‘ishlangan. U 89 bob va 7218 baytdan iborat.

*Ato jon berib o‘g‘lin o‘tirgali,
O‘g‘il ham anga tiyg‘i kin surgali.
Qarindosh topsa qarindoshini,
Domadim tilab kesgali boshini.
Bu nav o‘sa mundoq ikki zot aro,
Ne bo‘lg‘ay gumon qil ikki yot aro.*

Raqs: “Munojat”

16-bola: Bobomiz Alisher Navoiy 1490 yilda 4 devondan iborat “Xazon ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinası”) ni yaratdi. Uni umr fasllariga qiyoslab 4 qismga bo‘lganlar.

*Sher ham chin kishiga farzand,
Ko‘ngilga qut-u bag‘riga payvand.*

17-bola: Ikkinchi devoni 20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan vaqtni ichiga olib umrning yoz qismiga qiyos qilinadi.

*Xishdurir bog‘i koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.*

18-bola: Uchinchi devoni 35 yoshdan 45 yoshgacha vaqtni o‘z ichiga oladi. Uni umr ko‘ziga qiyos qilinadi. U “Badal ul-vasat” deb nomlanadi.

*Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tufroqqami ketgumdir oxir.*

19-bola: To‘rtinchi devon 45 yoshdan 60 yoshgacha vaqtni o‘z ichiga oladi. Uni shoir qish fasliga qiyos qiladi. Bu devon “Favodul kibr”, ya’ni “Keksalik foydalari” deb nomlangan.

*Agar shoh ar gadodir odamzod,
Emas bo‘yni qazo hukmidan ozod.*

Raqs: “Dilxiroj”

20-bola: Alisher Navoiy maktab haqida so‘z yuritib bolalariga riyo, xalqqa baxt, mamlakatga katta boylik keltiradi, deb aytganlar. Xalqlar maktabsiz o‘z yo‘llarini topa olmaydi deb ta’kidlaganlar.

21-bola: Bobomiz o‘z g‘azallari, dono hikmatlarida har bir insonni o‘z so‘ziga e‘tibor berib so‘zlashga chaqirganlar.

So‘zdirki nishon berur o‘likka jondin,

So‘zdirki berur jonga xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Balki gavhari sharifroq yo‘q e‘tiborsiz.

22-bola: Tilga e‘tiborsiz-elga e‘tiborsiz.

23-bola: Til bilgan-el biladi.

24-bola: So‘zga e‘tibor – elga e‘tibor. Bu hikmatlarga birinchi bo‘lib o‘zlari amal qilganlar.

25-bola: So‘z mulkning sultoni Navoiy birinchilardan bo‘lib o‘zbek tiliga asos solganlar. O‘zbek tilini takomillashtirish uchun bor kuchlarini sarflaganlar. “Men turkiy nazmida bayroq ko‘tarib, bu mamlakatni bir qalamostiga birlashtirdim” deb aytgan edilar.

Ona tilim ulug‘ tilim,

Davlat tilim bo‘lsa haq tilim.

Navoiydan minnatdor tilim,

Kuchga to‘lib ma‘no top tilim.

26-bola: *Ona so‘zim avaylab asr-asr,*

Sirli so‘qmoqlardan oshgan tilim.

Ona so‘zin asrab asr-asr,

Mustaqil manzil sari shoshgan tilim.

Ona tilim jonu dilim,

Senla kamol topdi elim.

Ona tilim jonu dilim,

Ta‘zim senga berding bilim.

28-bola: Mutaфakkir shoir insonlik mohiyatini uning xalqqa foydasi tegishida deb biladi va :

Odamiy ersang demagil odami

Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Navoiy vatanparvarligi xalqqa bo‘lgan mehrida ifodalangan:

Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur,

Bilki, bu naf‘ o‘zingga ko‘prakdurur.

Qo‘shiq “*Qorakuzim*”

O‘qituvchi: Alisher Navoiy bobomiz o‘z asarlarida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy -axloqiy tarbiyaga oid ibratli pand-nasihatlarini yoritganlar. Siz o‘quvchilar Navoiy asarlarini o‘rganish orqali o‘zingizda ilmga, vatanga, komillikka erishishga oid ma’lumotlarga ega bo‘lasiz. Zero, Navoiy asarlari uchmas zuyo manbayi hisoblanadi. Bu ilm-ziyodan bahramand bo‘lish hamma yoshlar uchun sharaftir. Shu bilan bugungi tadbirimiz o‘z yakuniga etdi. Xayr sog‘-salomat bo‘ling.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish borasidagi ishlarning amaldagi holatini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. To'plangan ilmiy dalillarni tahlil qilish boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning mavjud darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini va o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishga ko'maklashadigan didaktik vositalar hamda manbalarni aniqlashga yordam berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning turli usullari va metodlaridan foydalanishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish manbalari va mezonlarini aniqlashga hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga asos yaratdi.

2. Olingan natijalar faqat darsda emas, balki darsdan tashqari tadbirlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish ustida izchil ish olib borish zarurligini ko'rsatdi.

3. Asosiy diqqat-e'tiborni boshlang'ich sinf "O'qish", "Ona tili", "Tarbiya" darslarida o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning turli omillari va vositalaridan foydalanib, uning samaradorligini oshirishga qaratish lozimligi aniqlandi.

4. Dars jarayonida Alisher Navoiy merosidan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning muhim manba ekanligi aniqlandi.

III BOB. TADQIQOT MUAMMOSIGA DOIR TAJRIBA SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

3.1-§. Tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni qo'ydi. Boshlang'ich ta'lim samaradorligi asosan o'qituvchida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishi va uning shaxsini rivojlantirish yo'lidagi o'sishi to'g'risida doimiy va tizimli ma'lumotlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday ma'lumotlar pedagogik tashhishlash asosida amalga oshiriladigan o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasining borishi hamda natijalarini muntazam ravishda kuzatib orqali ta'minlanadi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash uslub va usullari, vositalari ham ifodalangan. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarini yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Shuning uchun biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharaflil vazifa sifatida qarashimiz kerak, zero darsliklar orqali o'quvchilar ma'naviy qiyofasi shakllanadi.

Darhaqiqat bugun har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash har qachongidan ham muhim. Shu bois darsliklar yangilanmoqda, o'qituvchilarga yangi talablar asosida ishlash yo'llarini o'rgatuvchi metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlanmoqda, lekin bu yo'lda ham ko'p ishlar qilinishi zarur.

Boshlang'ich sinflarning "O'qish" va "Ona tili" kitobida "Bobokalonimiz Alisher Navoiy", "Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari", "Alisher Navoiy haqida rivoyatlar", "Donolarning donosi", Oybekning "Alisherning yoshligi" hikoyasi berilgan. Garchi ular qisqa bo'lsada, Alisher Navoiyning hayoti, uning bizga qoldirgan katta merosi, qilgan ezgu ishlari, insonparvarligi haqida o'quvchi ongida tasavvur

hosil qilishi mumkin, ammo darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda Alisher Navoiy imkoniyatlari to'la foydalanilmayapti. Hozirgi 4 sinf o'quvchilari o'qigan ko'pgina hikoyatlar bir necha marta takrorlangan, masalan Alisher Navoiy haqidagi "Non isi" deb nomlangan rivoyat birinchi sinf o'qish darsligida ham to'rtinchi sinf ona tili darsligida takror berilgan. Shuningdek, Po'lat Mo'minning "Donolar donosi" hikoyasi ikkinchi sinf ona tili darsligi hamda uchinchi sinf o'qish kitobida takrorlangan. Navoiyning hikmatli so'zlarida ham xuddi shunday takrorlanishlarni uchratish mumkin. Navoiyning ma'naviy merosida keng o'rin egallagan ruboiylarni boshlang'ich sinf darsliklarida umuman uchratmadik. Ruboiylarni tahlil qilish yod oldirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuksak axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ba'zi darsliklarda Alisher Navoiy merosi haqida qisqa ma'lumo berilgan. Uning merosi qanchalik keng o'rganilsa, o'quvchilarni o'qitish jarayoniga qiziqish sifatlarini shakllantirishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Biz xuddi shu maqsadda maktablarda tajriba-nazorat ishlarini tashkil qildik. Bu tadqiqotimizda jami 103 nafar o'quvchi, 13 nafar o'qituvchi qatnashdilar.

Tashlash natijalaridan olingan ma'lumotlar boshlag'ich sinf o'quvchilarining o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish imkoniyati va ushbu ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish bo'yicha tushunchalarini shakllantirish ta'lim berishdagi keyingi faoliyat uchun zarur asos hisoblanadi.

Ana shu jarayonda pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish tashhislashning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida tajriba-sinov ishi juda murakkab hodisadir. Uni amalga oshirish sifati ko'plab omillarga bog'liq, shuning uchun ilmiy-tahliliy tizim tartiblari turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Faqat bu holda tajriba-sinov ishi obyektiv, ishonchli va ta'lim jarayonini boshqarish maqsadlari uchun yaroqli bo'ladi.

Testlar yuqori obyektivligi, ishonchliligi va tartib dinamikasi tufayli pedagogik tashhislash va ta'lim sifatini monitoring qilish

vositalarida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ta'lim yutuqlari darajasida ommaviy tajriba-sinov ishilarini o'tkazishda ular an'anaviy pedagogik tajriba-sinov ishi vositalariga qaraganda samaraliroq. Testning o'ziga xosligi, boshqa pedagogik tashhislash shakllari bilan taqqoslaganda, eng avvalo o'quv vazifalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Test topshirig'ining shakli nazorat qilinadigan o'quv materialining mazmuni, olingan ko'nikma va malakalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

Test sinovlari quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

- aniqlik, ya'ni vazifani o'qib bo'lgach, har bir o'quvchi unga qanday maqsadlar qo'yilganligini, vaziyat qanday bo'lganligi va qanday harakatlar qilinishi kerakligini tushunishi lozim;

- soddaligi, ya'ni vazifalar va javoblarning so'zlari aniq, qisqa bo'lishi kerak, soddalik ko'rsatkichi harakatlarni bajarish tezligi hisoblanadi;

- tenglik, ya'ni bir nechta vazifalarning barcha savollari murakkablik darajasi bo'yicha bir xil bo'lishi kerak;

- qisqalik, ya'ni qisqa javoblarni talab qilish – barcha o'quvchilarning yutuqlarini o'lchashga, ya'ni standart bilan solishtirishga imkon berish lozim.

Ko'p variantli turdagi vazifalarni bajarishda o'quvchidan bir nechta taklif qilingan mumkin bo'lgan javob variantlardan bittasini yoki ba'zan bir nechtasini to'g'ri tanlash talab qilinadi. Bu taxmin qilish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Biroq o'nta testdan iborat test uchun to'g'ri javoblarni taxmin qilish ehtimoli deyarli nolga teng. Shuning uchun tegishli dastur materialini bilmagan o'quvchidan ijobiy baho kutish shart emas. Bunday vazifalar ifodali shaklga ega bo'lishi kerak, ya'ni tanlangan javobga qarab ham to'g'ri, ham yolg'onga aylanishi mumkin bo'lgan gap bo'lishi kerak. Vazifalar so'z jihatidan imkon qadar qisqa bo'lishi lozim. Bundan tashqari, shuni yodda tutish kerakki, topshiriqlardagi javoblar ishonchli bo'lib, bir xil darajada o'ziga jalb etuvchi va noto'g'ri javoblar o'quvchilarning odatdagi xatolariga to'g'ri kelishi kerak.

Bunday vazifalarni tuzishda turli xil texnikalardan foydalanish mumkin:

1. Muqobillik, ya'ni ikkita javob bilan: ha, yo'q. Masalan: "Alisher Navoiy kimligini bilasizmi" (ha, yo'q).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy merosini bilishlik darajasini aniqlash uchun test savollari bilan murojaat qildik. Savollarni tuzishda muqobillikka doir, tasniflashga doir test turlaridan foydalanildi. Har bir to'g'ri va to'liq javob uchun 3 baldan belgilandi. Shuningdek o'quvchilar bilan pisa testi ham o'tkazdik.

Navoiy ijodiga bag'ishlangan darslarni interfaol usullar bilan yuqoridagi tavsiyalarga asoslangan holda tashkil etdik. Navoiy merosiga bag'ishlangan hikoyatlar, hikmatli so'zlardagi ba'zi takrorlanishlar o'rniga yangi ma'lumotlar kiritdik. Nazorat sinflarda darslar an'anaviy usulda hech qanday o'zgarishlarsiz tashlil qilindi.

O'tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida o'quvchilarning Alisher Navoiy merosini o'rganganlik darajasini quyidagi test yordamida sinab ko'rdik.

Test savolnomasi:

1. Alisher Navoiy kim bo'lgan?
 - A. Sarkarda, lashkarboshi.
 - V. Shoir, olim va davlat arbobi.
2. Alisher Navoiyning nima uchun so'z mulkingning sultoni deymiz?
 - A. Ko'p binolar qurgani uchun.
 - V. Ko'p asarlar yozgani uchun.
3. Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Hikmatli so'zi qaysi allomamizga tegishli?
 - A. Alisher Navoiy.
 - V. Amir Temur.
4. Alisherga kiyikni kim olib kelgan edi?
 - A. Otasi.
 - V. Tog'asi.
5. Alisher hayotda nimani zarurat deb bildi?
 - A. Eng zarur zarurat ovchilik.

V. Eng zarur zarurat maktabdir.

6. Alisher dunyodagi eng xushbo'y narsa deb shohga nimani olib keldi?

A. Rayhon isi.

V. Non isi.

7. Aytar so'zni ayt

Aytmas so'zdan qayt. Hikmatli so'zi qaysi allomamizga tegishli?

A. Mirzo Ulug'bek.

V. Alisher Navoiy.

8. Oz-oz o'rganib dono bo'lur

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Ushbu hikmatli so'zni kim aytgan?

A. Alisher Navoiy

V. Ahmad Yassaviy

Shuningdek tajriba sinov ishlarimiz davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham anketa savollari bilan murojaat qildik.

Anketa savollari (boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun)

1. A. Navoiyning qaysi asarlari bilan tanishsiz?

2. A. Navoiyning qaysi merosidan ko'proq foydalanasiz?

3. A. Navoiyning asarlari boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ahamiyatga egami?

4. A. Navoiyni asarlaridan qaysi fanlarimizda qo'llashimiz mumkin?

5. Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj'ila aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj'ila hikmatli so'zlarini qanday izohlaysiz?

6. Navoiyning ustozlari haqida ma'lumotga egamisiz?

7. Navoiyning qiziqqan mashg'ulotini bilasizmi?

8. A. Navoiyning qaysi asarlarini mutola qilgansiz? va tarbiyada qo'llagansiz

9. Maymun bilan durroj asari bilan ishlaganingizda o'quvchilarga qanday xulosa bergansiz?

10. Alisher asarlari darsliklarga kiritilishining tarbiyaviy ahamiyati nimada deb o'ylaysiz?

3.2-§. Tajriba sinov ishlari tahlili va matematik statistika

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz tajriba-sinov ishlari obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz shahridagi 1-, 2- umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi va tajriba-sinov ishlarida jami 103 nafar o'quvchilar, 13 nafar o'qituvchilar ishtirok etishdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi. Tajriba sinov ishlarining birinchi bosqichida har bir umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinflaridan tajriba va nazorat guruhlarini tanlab olindi. O'quvchilarning Alisher Navoiy merosini bilishlik darajalarini aniqlash uchun anketa savolnomasi o'tkazildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish holatini aniqlash uchun esa o'qituvchilarga anketa savollari bilan murojaat qildik.

Tajriba boshida maktablar bo'yicha sinflar kesimida olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz:

3.1-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy merosini bilishlik darajasi (tajriba boshida)

Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlarini		Nazorat guruhlarini	
	Tajriba boshida	%	Tajriba boshida	%
Yuqori	16	29,6	14	28,6
Yaxshi	27	50	26	53,1
O'rta	11	20,4	9	18,3
Jami	54	100	49	100

Tajriba boshidagi ko'rsatkichlardan ko'rish mumkinki, tajriba va nazorat uchun tanlab olingan guruhlardagi o'quvchilarning Alisher Navoiy merosiga bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi deyarli teng. Har ikkala guruh o'quvchilari ham Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, asarlari, hikmatli so'zlarni bilishlik borasida berilgan savollarga munosabat bildirishda, asosan, darslik materiallariga tayanadilar.

Tajriba-sinov ishlarining navbatdagi bosqichida tajriba guruhlarida tadqiqotimiz davomida takomillashtirilgan metodika asosida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etildi. Ya'ni dars davomida AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda "Virtual ekspeditsiya" metodidan, interaktiv metodlardan, didaktik o'yinlardan foydalandik. Shuningdek, bir qator sinfdan tashqari tadbirlar tashkil etildi. Sinf o'quvchilari "Yosh izodkorlar" tugragiga jalb etildi. Ushbu tugarak faoliyati barcha o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. Ular bilan tashkil etilgan sinf va sinfdan tashqari tadbirlar, badiiy kechalar, muzeylarga sayohatlar davomida o'zlashtirilgan bilimlar asosida Alisher Navoiy ijodi, bilim olishga oid fikrlari, o'quvchilarni ilmiy dunyoqarash shakllantirilishiga e'tibor qaratildi.

3.2-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy merosini bilishlik darajasi (tajriba oxirida)

Ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhlari		Nazorat guruhlari	
	Tajriba oxirida	%	Tajriba oxirida	%
Yuqori	21	38,9	13	26,5
Yaxshi	31	57,4	28	57,2
O'rta	2	3,7	8	16,3
Jami	54	100	49	100

Keyingi bosqichda amalda qo'llanilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishga doir fikrlaridan foydalanishlik darajasi ko'rsatkichlarini aniqladik. Natijalar aniq bo'lishi uchun tajriba boshi va tajriba oxiridagi natijalarni qiyosiy tarzda keltirib o'tamiz.


3.3-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy merosini bilishlik darajasining qiyosiy tahlili

Ko'rsatki	Tajriba-sinov	Nazorat guruhlari
------------------	----------------------	--------------------------

chi	guruhlari							
	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
Yuqori	16	29,6	21	38,9	14	28,6	13	26,5
Yaxshi	27	50	31	57,4	26	53,1	28	57,2
O'rta	11	20,4	2	3,7	9	18,3	8	16,3
Jami	54	100	54	100	49	100	49	100

Tajriba-sinov ishida ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida Alisher Navoiy merosiga oid fikrlarni o'quvchilarni o'qitishga foydalanishlik darajasi dinamikasini umumiy holda keltirdik. Natijalarni diagramma shaklida ifodalaymiz. Ushbu natijalar yaqqolroq ko'rinishi uchun diagramma ko'rinishida keltirib o'tamiz:



3.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy merosini bilishlik darajasi

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Studentning tanlama mezoni, K.Pirsonning muvofiqlik kriteriysi, Laplas funksiyasidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1- va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz:

3.3-jadval.

	1-tanlanma				
Tajriba guruhi	X_i	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Jami
	n_i	21	31	2	$n(54)$
	2-tanlanma				
Nazorat guruhi	Y_j	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Jami
	m_j	13	28	8	$m(49)$

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i = \frac{1}{54} (21 \cdot 5 + 31 \cdot 4 + 2 \cdot 3) = \frac{1}{54} (105 + 124 + 6) = \frac{235}{54} = 4,35 \approx 4,4$$

$$\text{Foizda } \overline{X\%} = \frac{4,35}{3} \cdot 100\% = 145\%$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 m_j Y_j = \frac{1}{49} (13 \cdot 5 + 28 \cdot 4 + 8 \cdot 3) = \frac{1}{49} (65 + 112 + 24) = \frac{201}{49} = 4,1 \approx 4$$

$$\text{Foizda } \overline{Y\%} = \frac{4,1}{3} \cdot 100\% = 136,6 \%$$

Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan ko'rsatgichidan $145 - 136,6 = 8,4 \%$ ga yuqori ekan. Bu esa o'z navbatida $\frac{145\%}{136,6\%} = 1,06$ barobar ortiqqligini anglatadi.

Demak, tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan yuqori ekan: $\bar{X} > \bar{Y}$.

Har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarni hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab, tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$D_n = \sum_{i=1}^3 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1} = \frac{21(5-4,35)^2 + 31(4-4,35)^2 + 2(3-4,35)^2}{53} =$$

$$\frac{21 \cdot 0,42 + 31 \cdot 0,12 + 2 \cdot 1,82}{53} = \frac{8,82 + 3,72 + 3,64}{53} = \frac{16,18}{53} \approx 0,31$$

$$D_m = \sum_{j=1}^3 \frac{m_j (y_j - \bar{Y})^2}{m-1} = \frac{13(5-4,1)^2 + 28(4-4,1)^2 + 8(3-4,1)^2}{48} =$$

$$\frac{13 \cdot 0,81 + 28 \cdot 0,01 + 8 \cdot 1,21}{48} \approx \frac{10,53 + 0,28 + 9,68}{48} = \frac{20,49}{48} \approx 0,43$$

Bu natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz:

$$\tau_n = \sqrt{0,31} \approx 0,56; \quad \tau_m = \sqrt{0,43} \approx 0,66;$$

Bular asosida har ikki guruh uchun variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_n = \frac{\tau_n}{X} = \frac{0,56}{4,35} \approx 0,13; \quad \delta_m = \frac{\tau_m}{Y} = \frac{0,66}{4,1} \approx 0,161;$$

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X}=4,35$; $\bar{Y}=4,1$; $\delta_n=0,13$; $\delta_m=0,161$ ga teng.

Bundan o'qitish samaradorlig ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \delta_n)}{(\bar{Y} + \delta_m)} = \frac{4,35 - 0,13}{4,1 + 0,161} = \frac{4,22}{4,26} = 0,99 > 0;$$

Bilish darajasini esa quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$K_{\delta\delta} = (\bar{X} - \delta_n) - (\bar{Y} - \delta_m) = (4,35 - 0,13) - (4,1 - 0,161) = 4,22 - 3,94 = 0,28 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligining baholash mezoni noldan kattaligi ($K_{usb}=0,99>0$) va bilish darajasining baholash mezoni noldan kattaligini ($K_{bdb}=0,28>0$) ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori ekan.

Yuqoridagi hisoblashlardan ma'lum bo'ldiki, o'qitish samaradorligining baholash mezoni va bilish darajasining baholash mezoni noldan katta ekan. Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori ekan.

Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} P &= \frac{X}{3} \cdot 100\% - \frac{Y}{3} \cdot 100\% = \frac{4,35}{3} \cdot 100\% - \frac{4,1}{3} \cdot 100\% = \\ &= \frac{435}{3} \% - \frac{410}{3} \% = \frac{25}{3} \% = 8,33 \%; \end{aligned}$$

Bundan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 8,33 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan sinf va sinfdan tashqari jarayonda amalga oshiriladigan ishlar metodikasi samarador ekanligidan dalolat berdi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilgan

tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik jihatdan isbotlandi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanishda o'qituvchilar asosiy kuch bo'lib, ularni muhim ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish zarur.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanish jarayoni mezonni asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanishda sinfdan tashqari tadbirlarning asosiy shakllaridan yana biri tugaraklar, muzeylarga sayohat ekanligi tajriba-sinov ishlari yakunida o'z tasdig'ini topdi. Tugaraklar va sayohatlar orqali o'quvchilarni o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanish samarali tashkil etish mumkin.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qitishga Alisher Navoiy merosini foydalanish jarayoni yaxlit va tizimli tashkil etilsagina, samarali natijalarga erishish mumkin.

X U L O S A

Alisher Navoiy bu nomni eshitganda har kitobxon o'quvchi ko'z oldiga yuksak tafakkur sohibi siymosi gavdalanadi. Alisher Navoiyni mutafakkur deb ulug'laymiz. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan kishi degani. Darhaqiqat Navoiy ijodiyoti ulkan ma'naviyat-madaniyat chashmasi hisoblanib u yoshlar qalbini ilm-ma'rifat, insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi insonni komillikka etaklovchi fazilatlarga undaydi. Bir so'z bilan ifodalamoqchi bo'sak Alisher Navoiy asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o'xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, u qalamga olmagan bo'lsa! Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiyotiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz" Vatanga muhabbat, komillik intilish, barkamol shaxs tarbiyasi ham bundan mustasno emas albatda.

Shuning uchun biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida Alisher Navoiy merosidan foydalanishda quyidagilarga etiborni qaratilish lozim degan xulosaga keldik:

1. O'quvchilarni o'qitish jarayonida Alisher Navoiy merosidan foydalanishda, ularning yosh va psixologik xususiyatlaridan inobatga olinsa katta natijalarga erishish mumkin.

2. Alisher Navoiy merosi vositasi yordamida o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchi mahorati ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi avvalo bu merosdan nimalarni olishni va uni o'quvchilarga qanday o'rgatish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.

3. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni o'qitish jarayonida Alisher Navoiy hayoti va ijodiyotiga oid ma'lumotlardan kengroq foydalanishga e'tibor qaratishlari zarur.

4. Darsliklarda Alisher Navoiy merosiga taalluqli ma'lumotlar ko'proq kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

T A V S I Y A L A R

Tadqiqot ishimizning mohiyatidan kelib chiqqan holda, har bir ijodkor va mahoratli boshlang'ich sinf o'qituvchisi Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganib, o'quvchilarda ham ana shu merosga nisbatan muhabbat va hurmatni tarbiyalashlari uchun quyidagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik, ya'ni:

- o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning o'zlari Alisher Navoiyning ijodi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lsalar;

- boshlang'ich sinf darsliklarida bayon qilingan Alisher Navoiy merosiga oid ma'lumotlarning takrorlanishiga chek qo'yilsa;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatlarini ishga solib, darsliklardagi Alisher Navoiy merosiga bag'ishlangan mavzularga, mutafakkirning ta'lim tarbiyaga oid ma'lumotlari bilan boyitib borsalar;

- Alisher Navoiyning hikoyalari, hikmatlari va rivoyatlari asosidagi darslar zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol usullar asosida olib borilsa;

- Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlab o'tkaziladigan sinf va sinfdan tashqari tadbirlarning mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinsa va tez-tez tashkil etilsa ham o'qituvchilarning ilmiy salohiyat darajasi ham o'quvchilarning bilim darajasi yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.

2. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentabrdagi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. – AQSH, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi «Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 391-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ -2707- sonli qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y. 6-son, 70-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-

2021 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini bajarish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi».

10. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent-2022.16-b.

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

12. Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir", "Tasvir" nashriyoti. Toshkent-2021y 9-13 betlar.

13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar:

14. Oliy ta'lim (lug'at-ma'lumotnoma). –Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2003, 456 b.

15. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To'plovchi va mas'ul muharrir: M.M.Xayrullayev. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 480 b

16. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati // tuzuvchi va mas'ul Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Sano standart, 2015. – 81 b.

17. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. II. / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.q. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -671 b.

18. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.

III. FOYDALANILGAN BOSHQA ADABIYOTLAR.

19. Abdullayev I. Arab adabiyoti va Navoiy. O'zbek tili va adabiyoti j.- T.:Fan, №1.- 846 b
20. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
21. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. -232 b.
22. Navoiy A. Hayratul-abror. - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 206. -349 b.
23. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 15 tomlik, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1996, 17-b.
24. Navoiy A. Farhod va Shirin. - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 2006. -590 b.
25. Navoiy A. Nazm ul- javohir Asarlar o'n besh tomlik. T.: Badiiy adabiyot nashr, 15-tom, 1968.-52 b
26. Navoiy A. Xamsa.-T.: Yangi asr avlodi nasr., 2016.-498 b.
27. Navoiy A. Lisonut-tayr. (Nasriy bayoni bilan).-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-464 b.
28. Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni.- T., “Ma'naviyat”, 1997, 188- b.
29. Ergashev F., Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan. T., “Akademiya”, 1998, 2- b.
30. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996. – 152-b.
31. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova H va boshqalar. O'qish. (4-sinf darsligi).- T.: Yangi yo'l poligraph servise, 2007.- 271 b.
32. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.- 133 b.
33. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.- T.: SHarq, 2001.- 160 b.
34. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Normurodova B.A., Matnazarova K.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2014. – 360 b.
35. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.

36. Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlar.-T.: O'zbekiston, 2011.-407 b.
37. Oripova N. boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish Ped. fan. nomz... diss.- T., 2008.- 140 b.
38. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish. (3-sinf). T.: Ijod dunyosi, 2004.-238 b.
39. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O'qituvchi, 1995.- 478 b.
40. O'g'izxondan qolgan mulk. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.- 125 b.
41. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish. (1-sinf darsligi).- T.: Sharq, 2005.- 127 b.
42. G'afforova T., Sh. Nurullayeva., Z. Mirzahakimova. O'qish (2-sinf darsligi).-T.: Sharq, 2012.-173 b.
43. G'afforova T., Sh. Nurullayeva. O'qish (2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma).-T.: Sharq, 2012.-143 b.
44. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent: Ilm ziyo, 2004. – 78 b.
45. Hoshimov K va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 190 b.
46. Hamroyeva H. Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalaridan foydalanib o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari Ped. fan. nomz... diss.- T., 2008.- 131 b.
47. Husanxodjayev I, Alisher Navoiy ta'lim-tarbiy haqida, T.: O'rta va oily maktab. 1963.- 140 b.

<http://www.istedod.uz/>

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz

ILOVALAR

Ilova-1

Alisher Navoiy merosida mehnat va kasb-hunar tarbiyasi

(Boshlang'ich sing o'qituvchilari uchun ma'ruza)

Barkamol, jamiyat ravnaqi uchun kurashuvchi mehnatkash insonni tarbiyalash har bir xalqning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Bularning orasida O'zbekistonning o'ziga xos o'rni va mavqei mavjud. Ayniqsa buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kasb-hunar tarbiyasi borasida boy ilmiy merosimiz bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'quvchilarda mehnat, kasb-hunar tarbiyasiga oid tushunchalarni shakllantirishda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Mahmud Qoshg'iyning "Devonu lug'otut", Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Xamsa", "Nazmul javohir", "Lisonut tayr" asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ulkan boy madaniy-manaviy merosimizga salmoqli hissa qushgan alloma Alisher Navoiyning kasb-hunar tarbiyasi borasidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyati va qiymatini yo'qotmagan. Mutafakkir o'zining barcha asarlarida barkamol inson tarbiyasida kasb-hunar o'rganish masalasini birinchi o'ringa quyadi va insonlarni ilm olish yo'lida, yurt obodligi uchun tinmay mehnat qilishga, kasb-hunarli bo'lishga chorlaydi

Darhaqiqat, hech narsa Navoiyning teran nigohidan chetda qolmagan. Kasb-hunar tarbiyasi va uning inson hayoti hamda jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni borasidagi fikrlari ham hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Alisher Navoiy asarlarida halol mehnat, ijodiy mehnat katta o'rin tutadi. U kishilik hayotida mehnatning roliga baho berib, -yuk chekmoq ila kishi zebolik erur-deydi. Demak, mehnat kasb-hunar insonni kamolotga yetkazadi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida dehqonning mehnatini ta'riflab, bunday deydi: "Olam ma'murligi alardan va olam ahli masrurligi

alardin. Har qachonki qilsalar harakat, elga ham qut yetkuzgaylar, ham barakat”¹

Mehnat elni baxtli qiladi Alisher Navoiy o‘z asarlarida ijobiy qahramonlarini kasb hunarli mehnatkash insonlar sifatida gavdalantiradi.

“Dedi: har ish qilmish odamizod,
Tafakkur birla bo‘lmish odamizod.
Ulum ichra menga to bo‘ldi madxal,
Topilmas mushkule men qilmog‘on hal”²

Farhod arman o‘lkasiga boradi va u erda go‘zal Shirin amri bilan qazilayotgan kanalda zahmat chekib ishlayotgan odamlarga duch keladi. Toshloq erda kanal qazish nihoyatda mushkul ish edi. Farhod jon kuydirib ishlayotyan xaloyiqqa borib qo‘shiladi va ularga yordam bera boshlaydi. U aqlini, bilimini, hunarini ishga soladi. Ijodiy mehnat natijasida, oz fursat ichida, kanal va hovuzni to‘la -to‘kis qazib tamomlaydi.

Farhod o‘z kasb-hunari orqali, xalqqa mehnat mo‘jizalari ko‘rsatib, odamlar ishini engillashtiradi va ularning ruhini ko‘taradi. U xalqqa yordam berish va unga xizmat qilishni o‘zining burchi deb biladi. Har bir inson o‘z hunarini xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishga sarflashi lozimligini ta’kidlaydi:

”Hunarni asrabon netkudir oxir,
Olib tuproqqamu ketkumdir oxir”³

Navoiy bu bilan har bir xalq farzandi qo‘lidagi hunarini xalq faravonligi uchun sarflashi lozimligi, ishlatilmaydigan, xalq uchun foyda keltirmaydigan hunarning oxir oqibat tuproqqa teng bo‘lib hech kimga nafi tegmasligi mumkinligini aytmoqchi. Shuningdek alloma reja bilan, aql ishlatish bilan mehnat qilishni mahorat ekanligi va hunarning qadr-qimmatini ko‘rsatadi. Hunar bilan oila, yurt obod bo‘ladi. Shuning uchun ham har kim mehnat qilishi, kasb-hunar o‘rganishi kerakligini aytadi. Navoiy mehnatsiz rohat bo‘lmasligini bunday ta’riflaydi:

”Mehnat aro har kimki, tahammul yo‘q anga,
Tarvijga mutlaqo taxayyul yo‘q anga”¹

¹ Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”, Toshkent, 1960 yil, 182-bet.

²Husanxodjayev I, Alisher Navoiy ta’lim-tarbiy haqida, Toshkent, O‘rta va oily maktab, 1963y, 106-bet

³ Husanxodjayev I, Alisher Navoiy ta’lim-tarbiy haqida, Toshkent, O‘rta va oily maktab, 1963y, 106-bet

(Kimki mehnatga chidamsiz bo'lsa, uning ishining rivoj topishini xayolga ham keltirib bo'lmaydi.)

Xulosa qilib aytish mumkinki, insoniyat tarixida yoshlarda kasb-hunar tarbiyasini shakllantirish muammosi har doim ta'lim va tarbiya jarayonining yetakchi vazifalaridan hisoblangan. Bugungi kunda o'quvchilarda kasb-hunar tushunchasini shakllantirish maqsadida ta'lim mazmuniga bir qator mavzular va o'quv materiallari kiritilgan. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tarbiyasini tushunchasini shakllantirishda Alisher Navoiy merosi namunalaridan foydalanishga xizmat qiladigan o'quv materiallari bilan boyitish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

¹ Husanxodjayev I, Alisher Navoiy ta'lim-tarbiy haqida, Toshkent, O'rta va oiliy maktab, 1963y, 106-bet

Ilova-2

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarga murojaat qilingan so'rovnomalar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchasini shakllantirish bo'yicha maktabingizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchasini shakllantirish va uni hayotga tatbiq etish yo'l-yo'riqlari nimalardan iborat?

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchasini shakllanganlik darajasini qanday aniqlash mumkin?

4. Boshlang'ich sinflarda kasb-hunar o'rganishga ishtiyoq hissini shakllantirishda qaysi metodlardan ko'proq foydalanish mumkin?

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar o'rganishga ishtiyoq hissini shakllantirishda boshlang'ich sinf darsliklarida Alisher Navoiy merosi va ijodi asosida berilgan namunalar sizni qoniqtiradimi?

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tarbiyasini to'g'ri shakllantirishda Alisher Navoiy merosi va hayoti namunalaridan o'z pedagogik faoliyatingizda foydalanasizmi?

7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tarbiyasini kichik yoshligidanoq boshlash lozim degan fikrga sizning munosabatingiz?

8. Sizningcha o'quvchilarda kasb-hunar tarbiyasini shakllantirishda Navoiyning qaysi asar qahramonlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin?

Ilova-3

Kim bo'lsam ekan? (Tarbiyaviy soat ishlanmasi)

I.Kirish:

Tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi: O'quvchilarga barcha kasblar haqida tushuncha berish.

Kasb egalarini ish qurollari bilan tanishtirish. O'quvchilar qalbida kasblarga mehrmuhabbat uyg'otish. Bolalarda qanday kasb turlari haqida tushunchalari borligini, otalarning kasblari haqidagi fikrlarini aniqlash, mehnat jarayonining holatini rasmlar orqali izohlash. Suhbat davomida bolalarga kasb-hunar egallashda aql, mehnat, iroda, sabr-toqat, hamjihatlik kabi fazilatlar zarur ekanligini uqtirish.

Tarbiyaviy mashg'ulotning jihozi: tarqatma material, turli kasb-hunarlar aks etgan rasmlar, boshqotirma.

Tarbiyaviy mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism: O'quvchilarning darsga tayyorgarligi, navbatchi axboroti.

O'qituvchi:

Dunyoda ko'pdir hunar

Hammasi ham zo'r ular

Biri birin to'ldirar

Biri birin jildirar

Yer-u dengiz, osmonda

Demak hamma tomonda

Hunarlar xizmatda

Va hurmatda, albatta

Dunyoda ko'pdir hunar

Hammasi ham zo'r ular.

Zarurlikda nechog'lik

Biri biriga bog'liq

Hunarli barcha joyda

Elga keltirar foyda

II.Asosiy qism:

Aziz o‘quvchilar bugungi mashg‘ulotimizning mavzusi « Kim bo‘lsam ekan?». O‘yini orqali biz sizlar bilan turli kasblar haqida bilib olamiz.

Ota-onangiz qaysi kasb egasi? Kasb o‘zi nima?

2. Kelajakda kim bo‘lmoqchisan? Kabi savollarga javoblar olinadi.

O‘qituvchi bolalar javoblarini umumlashtiradi: Kasb-hunar bu ish faoliyatining biror turi, i ma‘lum bilim, tajriba, tayyorgarlik talab etadi. Kasb-hunar turli tuman. Mana bu suratga qarang, suratda qanday kasb egalarini ko‘rayapsiz? Bolalar javoblari eshitiladi va kasblarning nomi yoziladi.

Bolalarga kasblar bo‘yicha suratlar tarqatadi. Bolalar tarqatilgan suratlar bo‘yicha kasblarga ta‘rif beradilar

-Sizning ota-onangiz qayerda ishlaydilar? Ular qanday kasb egalari ekanliklari haqida so‘zlab bering. Ota-onangiz ish joylarida nima ish qilishadi?

Bolalar javoblari eshitiladi.

O‘qituvchi: Siz katta bo‘lganingizda kim bo‘lmoqchisiz? Buning uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Bolalar javoblari.

Kasb-hunar egallashda aql, mehnat, iroda, sabr-toqat, hamjihatlik kabi fazilatlar zarur ekanligini uqtiriladi.

O‘qituvchi: mana bolalar, hozirgina biz sizning ota-onalaringiz kasblari, o‘zingizni orzularingiz haqida suhbatlashib oldik. Kasb inson uchun juda zarur faoliyat ekanligini tushunib yetdingiz deb o‘ylayman.

Kim qanday kasb tanlasa, mehr qo‘yishi kerak O‘z kasbini yaxshi bilgan kishining ishi unumli bo‘ladi.

Aziz bolajonlar Alisher Navoiy hazratlari ham kasb-hunar tarbiyasi va uni egallash borasida juda ko‘plab hikmatli so‘zlar, hikoyatlar va asarlar yozganlar. Men sizga hozir Navoiyning kasb-hunar tarbiyasi borasida aytgan fikrlaridan namunalar aytaman siz esa ma‘nosini topishga harakat qiling:

Oz-oz o‘rganib don obo‘lur

Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim

Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Navoiy asarlari qahramonlaridan Farhod juda mehnatkash inson sifatida ta’riflanadi:

Farhod o‘z kasb-hunari orqali, xalqqa mehnat mo‘jizalari ko‘rsatib, odamlar ishini engillashtiradi va ularning ruhini ko‘taradi. U xalqqa yordam berish va unga xizmat qilishni o‘zining burchi deb biladi. Har bir inson o‘z hunarini xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishga lozimligini ta’kidlaydi:

”Hunarni asrabon netkudir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir”

”Mehnat aro har kimki, tahammul yo‘q anga,

Tarvijga mutlaqo taxayyul yo‘q anga”

(Kimki mehnatga chidamsiz bo‘lsa, uning ishining rivoj topishini xayolga ham keltirib bo‘lmaydi.)

O‘quvchilar hikmatli so‘zlardan nimalarni tushunganlarini bayon qilishadi.

III. Yakuniy qism:

“Pantomimo” o‘yini .

O‘quvchilar imo-ishora orqali rasmda aks ettirayotgan kasbni ifoda etishi kerak.

"Kim chaqqon" o‘yini.

O‘quvchilar bir-biriga to‘p otish orqali kasblar nomlarini aytishadi. Qaysi guruh ko‘p kasb nomini ayta olsa o‘sha guruh g‘olib sanaladi.

Har bir guruhning har bir kasb bo‘yicha topgan so‘ziga rag‘bat kartochkasi beriladi va o‘yin oxirida rag‘bat kartochkalari hisoblanib, g‘olib guruh aniqlanadi.

O‘quvchilarni rag‘batlantirish.

Mashg‘ulot yakunlanadi.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB.	BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1-§.	Barkamol shaxs tarbiyasida Alisher Navoiy merosidan foydalanishning o‘rni va ahamiyati	7
1.2.-§.	Alisher Navoiy asarlarida pedagogik va didaktik g‘oyalar tahlili.	16
1.3.-§.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishning mavjud holati.	25
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.	32
II BOB.	BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARNI O‘QITISHDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	33
2.1-§.	Alisher Navoiy merosidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.	33
2.2-§.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda Alisher Navoiy merosidan foydalanishni tashkil etish metodikasi.	47
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.	60
III BOB.	O‘QUVCHILARNI O‘QITISHDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISH JARAYONINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH	61
3.1-§.	Tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi.	61
3.2-§.	Tajriba sinov ishlari tahlili va matematik statistika.	66
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	72
	XULOSALAR	73
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	74
	Ilovalar	78

Amirova Gulnoza Rashitovna

**Boshlang'ich sinflarni o'qitishda
Alisher Navoiy merosidan foydalanish**

Monografiya

Muharrir: Qurbonali AZIZOV

Texnik muharrir: Siyovush QURBONOV

Tasdiqnoma. № №1149425

Terishga berildi: 25. 05. 2026 y.

Bosishga ruxsat etildi: 26. 05. 2026 y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60 x 84 1F16 .

“Times Roman” gar. Ofset bosma.

Hisob nashriyot t.: 5,50. Shartli b. t.: 6.

Adadi: 50 nusxa. Buyurtma № 137

“Ta’lim innovatsiyalari ” nashriyotida tayyorlandi.

“Sharq nashr” bosmaxonasida chop etildi.

181300. Shahrisabz shahri,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Shahrisabz” ko‘chasi,

10 - uy.